

SAMIMIY QUTLOVLAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 24-iyul kuni qator xorijiy mamlakatlarning yetakchilari va nufuzli siyosatchilari bilan telefon orqali muloqot qildi.

Suhbatlar chog‘ida xorijiy hamkorlar davlatimiz rahbarini tavallud kuni bilan samimiy tabriklab, mustahkam sog‘liq, baxt-saodat va Yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirishda yangi muvaffaqiyatlar tiladilar. Shuningdek, mamlakatimizning ko‘p millatli xalqiga tinchlik-osoyishtalik, farovonlik va ravnaq tilaklarini izhor etdilar.

Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin bilan telefon orqali muloqotda oliy darajadagi kelishuvlarni amalga oshirish doirasida O‘zbekiston — Rossiya keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada rivojlantirish va mustahkamlashning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

O‘zaro tovar ayirboshlash ko‘rsatkichlarining o‘sish sur‘atini saqlab qolish, yetakchi korxona va kompaniyalarning sanoat, energetika, qishloq xo‘jaligi va boshqa ustuvor yo‘nalishlardagi kooperatsiya loyihalarini ilgari surish, ikki mamlakat hududlarining samarali hamkorligini kengaytirishga alohida e‘tibor qaratildi.

Faol madaniy-gumanitar almashinuvlar davom etayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi. O‘zbekiston va Rossiya yetakchilari bo‘ljajak tadbirlar rejasini ham ko‘rib chiqdilar.

Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev bilan telefon orqali muloqotda O‘zbekiston bilan Qozog‘iston o‘rtasidagi yaxshi qo‘shnichilik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada rivojlantirish va mustahkamlash masalalari ko‘rib chiqildi.

Barcha yo‘nalishlarda o‘zaro manfaatli hamkorlik sur‘ati ortib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Tovar ayirboshlash hajmi oshmoqda. Metallurgiya, to‘qimachilik, qishloq xo‘jaligi, logistika, qurilish va boshqa ustuvor yo‘nalishlarda muhim kooperatsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. Xalqaro sanoat kooperatsiyasi markazini ishga tushirishga tayyorgarlik ko‘rilmoqda.

Joriy yilda qator madaniy-gumanitar tadbirlar, jumladan, yoshlar, turizm va ta‘lim forumlari o‘tkaziladi.

Davlat rahbarlari bo‘ljajak ikki va ko‘p tomonlama tadbirlar rejasini ham ko‘rib chiqdilar.

Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadiir Japarov bilan subhatda O‘zbekiston — Qirg‘iziston do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlashning dolzarb masalalari batafsil muhokama qilindi.

O‘zaro savdo hajmi jadal ortmoqda, sanoat kooperatsiyasi loyihalar, shu jumladan, Qo‘shma fond doirasida amalga oshirilmoqda. “Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston” temir yo‘li va Qambarota GESini qurish kabi yirik mintaqaviy infratuzilmaviy loyihalar bo‘yicha amaliy ishlar davom ettirilmoqda.

Prezidentlar bo‘ljalik oliy darajadagi ikki hamda ko‘p tomonlama tadbirlar rejası va kun tartibi yuzasidan ham fikr almashdilar.

Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon bilan telefon orqali muloqotda O‘zbekiston

bilan Tojikiston o‘rtasidagi do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada rivojlantirish, eng avvalo, oliy darajadagi kelishuvlarni amalga oshirish masalalari ko‘rib chiqildi.

O‘zaro savdo hajmi ortib borayotgani, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida, shu jumladan, qo‘shma investitsiya kompaniyasi orqali kooperatsiya loyihalarini ilgari surilayotgani ta‘kidlandi. Chegara oldi savdo markazlarini ochish ustida ish olib borilmoqda. Samarqand va Dushanbe shaharlari o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aviaqatnovlar tiklandi. Muhim madaniy dasturlar amalga oshirilmoqda.

Yetakchilar mintaqaviy kun tartibidagi masalalarni, shu jumladan, Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining navbatdagi Maslahat uchrashuviga tayyorgarlik ko‘rishni ham muhokama qildilar.

Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov bilan subhatda joriy yil aprel oyida Samarqand shahrida o‘tgan oliy darajadagi uchrashuvda erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish doirasida O‘zbekiston — Turkmaniston do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirish va mustahkamlashning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

O‘zaro tovar ayirboshlash jadal ortib, korxonalar va ishbiarmonlar darajasida kooperatsiya aloqalari chuqurlashib borayotgani, faol madaniy-gumanitar almashinuv davom etayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik masalalar, shu jumladan, BMTning Dengizga chiqish imkoni bo‘lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar bo‘yicha uchinchi konferensiyasi va Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining navbatdagi Maslahat uchrashuviga tayyorgarlik ko‘rish yuzasidan fikr almashildi.

Ozərbaycan Respublikası Prezidenti İlham Aliyev bilan O‘zbekiston Prezidentining shu oy boshida Ozarbayjonga amalga oshirgan tarixiy davlat tashrifining samarali natijalari katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Yetakchilarning bo‘lib o‘tgan uchrashuvlari va Oliy davlatlararo kengashning ikkinchi yig‘ilishi yakunida erishilgan kelishuvlarning amalga oshirilishi O‘zbekiston — Ozarbayjon ittifoqchilik munosabatlarini yanada mustahkamlash va ko‘p qirrali hamkorlikni kengaytirishga xizmat qilishi ta‘kidlandi.

Tovar ayirboshlash hajmi yil boshidan buyon 30 foizga oshdi. Sanoat zonasi va logistika kompaniyasini tashkil etishni o‘z ichiga olgan istiqbolli kooperatsiya loyihalarini portfelini shakllantirish ustida ish olib borilmoqda. Neft-gaz sohasidagi strategik loyiha bo‘yicha Mahsulot taqsimotiga oid bitim imzolandi.

O‘zbekiston va Ozarbayjon o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatilganining 30 yilligini nishonlash doirasida yirik qo‘shma tadbirlarga tayyorgarlik ko‘rilmoqda.

Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko Belarus Prezidentining o‘tgan yil fevral

oyidagi O‘zbekistonga tashrifi davomida erishilgan kelishuvlarni qabul qilingan “yo‘l xaritasi” asosida amalga oshirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Turli darajalardagi faol va sernahsul muloqotlar, shu jumladan, yaqinda Minsk shahrida o‘tgan Hukumatlararo komissiyaning navbatdagi yig‘ilishi va Toshkent shahrida o‘tgan tashqi ishlar vazirlari uchrashuvining samarali natijalari mamnuniyat bilan qayd etildi.

Joriy yil boshidan tovar ayirboshlash 28 foizga oshdi. Qishloq xo‘jaligi, elektrotexnika, to‘qimachilik, farmatsevtika va boshqa tarmoqlarda qo‘shma kooperatsiya loyihalarini amalga oshirilmoqda. Birgalikda madaniy-gumanitar tadbirlar o‘tkazilmoqda.

O‘zbekiston va Belarus yetakchilari bo‘ljajak ikki tomonlama tadbirlar rejasini ham muhokama qildilar.

Türkiye Respublikası Prezidenti Recep Tayyip Erdoğan bilan O‘zbekiston hamda Turkiya o‘rtasidagi keng qamrovli strategik sheriklik va ko‘p qirrali hamkorlik munosabatlarini yanada rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

Davlatlararo hamkorlikda yuksak darajaga erishilgani alohida mamnuniyat bilan qayd etildi. Turli darajalarda samarali muloqotlar davom etmoqda, tovar va yuk ayirboshlash, investitsiya ko‘rsatkichlari o‘smoqda, qo‘shma korxonalar soni va aviaqatnovlar ko‘paymoqda. Madaniy-gumanitar tadbirlar o‘tkazilmoqda.

O‘zbekiston va Turkiya Prezidentlari telefon orqali muloqotda oliy darajadagi Strategik hamkorlik kengashining bo‘ljajak navbatdagi yig‘ilishiga puxta tayyorgarlik ko‘rishga alohida e‘tibor qaratdilar.

Mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashildi.

Koreya Respublikasi Prezidenti Li Chje Myon bilan subhatda O‘zbekiston — Koreya alohida strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash va ko‘p qirrali hamkorlikni kengaytirish masalalari batafsil ko‘rib chiqildi.

Tarixiy do‘stlik rishalari, o‘xshash mentalitet, an‘ana va qadriyatlarga asoslangan ikki tomonlama aloqalar izchil rivojlanib borayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Keyingi yillarda o‘zaro tovar ayirboshlash ko‘rsatkichlari va qo‘shma korxonalar soni barqaror oshib bormoqda. Koreya kompaniya va tashkilotlarining O‘zbekiston iqtisodiyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalari hajmi 8 milliard dollardan oshdi.

Koreya xalqaro hamkorlik agentligi va Koreya Eksimbanki bilan samarali moliyaviy-texnik hamkorlik davom etmoqda.

Davlat rahbarlari ikki tomonlama sheriklikning yangi kun tartibini shakllantirish va oliy darajadagi faol muloqotlarni davom ettirish muhim ekanini ta‘kidladilar.

Shu ma‘noda, Tashqi ishlar vazirlari strategik muloqot va Hukumatlararo komissiyaning bo‘ljalik yig‘ilishlarini samarali o‘tkazishga alohida e‘tibor qaratildi.

Mintaqaviy hamkorlik, shu jumladan, “Markaziy Osiyo — Koreya Respublikasi” formati doirasidagi masalalar yuzasidan fikr almashildi.

Mo‘g‘uliston Prezidenti Uxnaagiyn Xurelsux bilan joriy yil iyun oyida Mo‘g‘ulistonga amalga oshirilgan tashrif doirasida o‘tgan oliy darajadagi ikki tomonlama uchrashuvlar yakunida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirishga alohida e‘tibor qaratildi.

Qabul qilingan “yo‘l xaritasi”ni amalga oshirish, chorvachilik, savdo, transport, sanoat kooperatsiyasi, konchilik sohalarida qo‘shma loyihalarini ilgari surish, madaniy-gumanitar almashinuv dasturi doirasida rejalashtirilgan tadbirlarni o‘tkazish muhimligi qayd etildi.

Birlashgan Arab Amirliklari Vitse-prezidenti Shayx Mansur Ol Nahayon bilan telefon orqali muloqotda O‘zbekiston bilan BAA o‘rtasidagi do‘stlik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash, joriy yil yanvar oyida BAAGA amalga oshirilgan oliy darajadagi tashrifda erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Ustuvor yo‘nalishlarda, eng avvalo, savdo-iqtisodiyot, investitsiya, innovatsiya va transport-kommunikatsiya sohalarida amaliy hamkorlik kengayib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

O‘zaro savdo hajmi, qo‘shma investitsiya loyihalarini portfelini, qo‘shma korxonalar va aviaqatnovlar soni ortib bormoqda. Yaqin muloqotni davom ettirish va bo‘ljalik oliy darajadagi uchrashuvlarga puxta tayyorgarlik ko‘rish muhim ekani ta‘kidlandi.

Qozog‘iston Respublikasining birinchi Prezidenti Nursulton Nazarboyev bilan subhatda O‘zbekiston — Qozog‘iston do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarida misli ko‘rilmagani yuksak darajaga erishilgani, ko‘p qirrali hamkorlik barcha ustuvor yo‘nalishlarda jadal rivojlanib borayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Rossiya Federatsiyasi Federal Majlisi Federatsiya Kengashi Raisi Valentina Matviyenko bilan O‘zbekiston hamda Rossiya o‘rtasidagi keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini, shu jumladan, samarali parlamentlararo hamkorlikni yanada mustahkamlash masalalari ko‘rib chiqildi.

Oliy darajadagi kelishuvlar ijrosi ustidan parlament nazoratini ta‘minlash, sanoat kooperatsiyasi, ta‘lim va madaniyat sohalarida qo‘shma loyiha va dasturlarni ilgari surish bo‘yicha faol hamkorlikni davom ettirish muhimligi qayd etildi.

Sankt-Peterburg shahri gubernatori Aleksandr Beglov bilan subhat chog‘ida O‘zbekiston hududlarining Sankt-Peterburg shahri bilan ikki tomonlama amaliy hamkorligini yanada kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, yangi kooperatsiya loyihalarini ilgari surish, faol madaniy-gumanitar almashinuvni davom ettirishga qaratilgan qo‘shma chora-tadbirlarni qabul qilishga alohida e‘tibor qaratildi.

SAMIMIY MINNATDORLIK

Tug‘ilgan kunim munosabati bilan chin yurakdan muborakkod etib, o‘zlarining samimiy qutlovlari va ezgu tilaklarini bildirgan xorijiy davlatlar, hukumatlar va parlamentlar rahbarlari, xalqaro tashkilotlar yetakchilariga, taniqli siyosat va jamoat arboblari, ishbiarmon doiralar vakillariga, yurtimizdagi mehnat jamoalari, mahallalar, nuroniyalar, xotin-qizlar va yoshlar tashkilotlari faollariga, tadbirkorlarimizga, mamlakatimiz va chet ellardagi barcha vatandoshlarimizga chuqur minnatdorlik izhor etaman.

Mening nomimga yo‘llangan ushbu tabrik va tilaklarni, avvalo, ko‘p millatli O‘zbekiston xalqi va davlatiga yuksak hurmat va ehtirom, dunyo hamjamiyati bilan yaqin hamkorlikda amalga oshirayotgan keng ko‘lamli islohotlarimizga, yorug‘ kelajagimizga ishonch va e‘tibor ifodasi sifatida qabul qilaman.

Barcha tashabbus va dasturlarimizni doimo qo‘llab-quvvatlab kelayotgan mard va olijanob xalqimizga yana bir bor chin dildan farzandlik mehrim va ehtiromimni bildirishdan baxtiyorman.

Ishonchim komil, el-yurtimizning ulkan yaratuvchilik mehnati, azmu shijoati bilan Yangi O‘zbekistonni barpo etish va uni jahondagi taraqqiy etgan davlatlar qatoriga olib chiqish bo‘yicha o‘z oldimizga qo‘ygan buyuk maqsadlarga albatta yetamiz.

Chuqur hurmat va eng ezgu tilaklar bilan,

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Ortga qaytmas islohotlar



KALQPARVARLIK FENOMENI

YANGI O‘ZBEKISTON

TARIXI QANDAY YOZILMOQDA?

Har bir davrning tarix solnomasidan o‘rin oladigan muhim voqealari, xulosa va saboqlari bo‘ladi. Ulg‘ayish, yangilanish deb atalmish jarayon idrokimizni tiniqlashtiradi, tafakkurimiz ufqlarini kengaytiradi. Har subhi sodiq yangi fikr, yangi niyat, orzu-umid eshiklarini ochadi.

O‘tgan asrning saksoninchi yillari adog‘ida dunyoda, sobiq ittifoqda yuz bergan, har birimizning ko‘z o‘ngimizda kechgan, ong-shuurimizga muhrlangan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, yangicha va eskicha qarashlarning ayovsiz to‘qnashuvi, mustabid tuzumning parchalanishi, qizil mafkura tamoyillarining tanazzuli, yetmish yildan ortiq vaqt dunyoning katta bir qismini xohish-irodasiga bo‘ysundirib, fuqarolarini qon-qaqshatib, jon-jonini sug‘urib kelgan davlatning siyosiy sahnadan tushishini o‘shanda kimlardir tarixning kechirib bo‘lmas xatosi sifatida qabul qilgani sir emas. Ammo tafakkuri uyg‘oq, zehni baland, tomirlarida ajdodlar ruhi so‘nmagan kishilar bu voqealarni mag‘zi puch har qanday g‘oyaning umri qisqa ekani dalolati sifatida dildan quvonib qabul qilgani ham bor gap.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tavallud kuni munosabati bilan xorijiy davlatlar, hukumatlar, parlamentlar, nufuzli xalqaro tashkilotlar, yetakchi xorijiy kompaniyalar rahbarlari, taniqli jamoat, din va sport arboblardan samimiy qutlovlar kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliyilariga	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliyilariga
Hurmatli Shavkat Miromonovich! Tavallud kuningiz munosabati bilan Sizni samimiy muborakkod etaman. Siz xalqingiz orasida va xalqaro maydonda yuksak obro‘-e‘tiborga sazovor bo‘lgansiz. Sizning rahnamoligingizda O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot yo‘lidan ishonch bilan ilgirilamoqda, mintaqaviy va xalqaro masalalarda konstruktiv rol o‘ynamoqda. Siz shaxsan mamlakatlarimiz o‘rtasidagi keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini mustahkamlashga ulkan hissa qo‘shmoqdasiz. Biz, shubhasiz, Rossiya va O‘zbekistonning do‘st xalqlari farovonligi yo‘lida, mintaqaviy barqarorlik va xavfsizlikni ta‘minlash manfaatlari ko‘zlab, ikki tomonlama hamkorlikning dolzarb masalalari bo‘yicha birgalikda ishlashda davom etamiz. Sizga chin yurakdan mustahkam sog‘liq, farovonlik va davlat rahbari sifatidagi faoliyatingizda muvaffaqiyatlar tilayman. Hurmat bilan,	Hurmatli Prezident janoblari! Tavallud kuningiz munosabati bilan Sizga samimiy tabriklarim va eng ezgu tilaklarimni izhor etaman! Yaqinda Ostona shahrida bo‘lib o‘tgan “Xitoy — Markaziy Osiyo” ikkinchi sammitida Siz bilan muzokaralar o‘tkazib, Xitoy bilan O‘zbekiston o‘rtasidagi har qanday sharoitda ham strategik sheriklik munosabatlarini yangi davrda rivojlantirishning strategik yo‘nalishlarini belgilab oldik. Men Xitoy — O‘zbekiston munosabatlarini rivojlantirishga alohida e‘tibor qarataman hamda o‘rtamizda qaror topkan samarali amaliy aloqalar va do‘stlikni yuksak qadrlayman. Shanxay hamkorlik tashkilotining Tyanszin sammitida hamda Xitoy xalqining yapon bosqinchilariga qarshi urushidagi G‘alabasi va Fashizmgga qarshi jahon urushidagi G‘alabasining 80 yilligiga bag‘ishlangan tantanali tadbirlarda ishtirok etayotganingiz munosabati bilan Sizni Xitoyda qutlashdan mamnunman. Sizga mustahkam sog‘liq va farovonlik tilayman!
Vladimir PUTIN, Rossiya Federatsiyasi Prezidenti	Si SZINPIN, Xitoy Xalq Respublikasi Raisi
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliyilariga	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliyilariga
Hurmatli Shavkat Miromonovich! Sizni tug‘ilgan kuningiz bilan chin dildan tabriklayman! Sizning uzoqni ko‘ra biladigan qat‘iy rahbarlingiz tufayli O‘zbekiston iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalarida sezilarli o‘zgarishlarga erishdi, xalqaro maydonda o‘z mavqegini salmoqli darajada mustahkamladi. Siz boshlagan islohotlar — davlat boshqaruvi, sud-huquq tizimini takomillashtirish, yoshlar	Qardosh xalqlarimiz o‘rtasidagi yaqin va do‘stona munosabatlar, shuningdek, Qirg‘iziston va O‘zbekiston o‘rtasidagi har tomonlama hamkorlik bundan buyon ham izchil mustahkamlab, rivojlanib borishiga ishonchim komil. Sizga, muhtaram Shavkat Miromonovich, mustahkam sog‘liq, bitmas-tuganmas kuch-g‘ayrat, uzoq umr, oilaviy baxt-saodat, mas‘uliyatli faoliyatingizda ulkan zafarlar, qardosh O‘zbekiston xalqiga esa tinchlik-osoyishtalik va porloq kelajak tilayman. Chuqur hurmat bilan,
	Sadir JAPAROV, Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti



SAMIMIY QUTLOVLAR

Boshlanishi 1-betda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga Qadrlı Shavkat Miromonovich! Sizni tug‘ilgan kuningiz bilan chin qalbidan tabriklayman! Aziz birodarim, hayotingizdagi ushbu qutlug‘ sana munosabati bilan eng ezgu tilaklarimni qabul qiling. Sizga mustahkam sog‘liq, oila a‘zolaringiz va yaqinlaringiz davrasida uzoq va baxtli umr, shuningdek, bitmas-tuganmas g‘ayrat hamda qardosh O‘zbekiston xalqi ravnaqi yo‘lidagi barcha reja va tashabbuslarni ro‘yobga chiqarishda ulkan zafarlar tilayman. Bugungi kunda yaqin qo‘shnimiz — O‘zbekiston Respublikasi Sizning vazmin davlat siyosatingiz, strategik pragmatizm va siyosiy uzoqni ko‘ra bilish qobiliyatingiz tufayli shiddat bilan rivojlanib, o‘zining ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini ham, xalqaro maydondagi obro‘-e‘tibori va nufuzini ham izchil mustahkamlab borayotgani quvonarlidir. Mintaqaviy hamkorlikni do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik, o‘zaro hurmat va ishonch kabi mustahkam tamoyillar asosida rivojlantirish va kengaytirishga qo‘shayotgan ulkan hissangizni yuksak qadrlaymiz. Tojikiston va O‘zbekiston xalqlarining tarixiy yaqinligidan kuch olgan do‘stona munosabatlar va bunyodkor hamkorlikni samarali rivojlantirish bo‘yicha Siz bilan doimiy sa‘y-harakatlarimizni mamnuniyat bilan ta‘kidlamoqchiman. Shu ma‘noda, men chuqur ishonchga asoslangan yaqin shaxsiy munosabatlarimizga alohida e‘tibor qarataman. Ushbu quvonchli fursatdan foydalanib, Tojikiston tomonining davlatlarimiz o‘rtasidagi strategik va ittifoqchilik sherikligini ikki va ko‘p tomonlama maydonda yanada mustahkamlash bo‘yicha yaqin hamkorlikni davom ettirishdan doimo manfaatdor ekanini ta‘kidlamoqchiman. Chin dildan va chuqur hurmat bilan, Emomali RAHMON, Tojikiston Respublikasi Prezidenti	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga Hurmatli Shavkat Miromonovich! Sizni tavallud kuningiz bilan chin dildan tabriklayman! Sizning oqilona va uzoqni ko‘ra biladigan rahbarligingizda O‘zbekiston Respublikasi yanada ulkan muvaffaqiyatlarga erishishiga qat‘iy ishonaman. Biz mamlakatlarimiz o‘rtasidagi an‘anaviy do‘stona va strategik munosabatlarni mustahkamlashga qo‘shayotgan shaxsiy hissangizni yuksak qadrlaymiz hamda xalqlarimiz farovonligi yo‘lida ikki tomonlama hamkorlikni yanada kengaytirishga umid qilamiz. Ushbu quvonchli imkoniyatdan foydalanib, Sizga chin qalbidan mustahkam sog‘liq, baxt-saodat, oilaviy farovonlik va davlat rahbari sifatidagi faoliyatingizda yangi muvaffaqiyatlar, qardosh O‘zbekiston xalqiga esa tinchlik-osoyishtalik, bardavom taraqqiyot va ravnaq tilayman. Chuqur hurmat bilan, Serdar BERDIMUHAMEDOV, Turkmaniston Prezidenti	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga Hurmatli Shavkat Miromonovich! Tug‘ilgan kuningiz munosabati bilan samimiy tabriklarim va eng ezgu tilaklarimni qabul qilgaysiz. Sizning uzoqni ko‘zlagan siyosatingiz tufayli bugun O‘zbekiston Respublikasi barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo‘lidan dadil bormoqda, xalqaro maydondagi nufuzini mustahkamlab, o‘z xalqining farovonligini yuksaltirmoqda. Turkmaniston va O‘zbekiston o‘rtasidagi qardoshlik, yaxshi qo‘shnichilik va strategik munosabatlarni rivojlantirish va mustahkamlashga qo‘shayotgan shaxsiy hissangizni alohida qayd etmoqchiman. Ishonchim komil, ko‘p qirrali davlatlararo hamkorligimiz bundan buyon ham xalqlarimiz farovonligi yo‘lida muvaffaqiyatli rivojlanib boraveradi. Ushbu yoqimli imkoniyatdan foydalanib, Sizga, muhtaram Shavkat Miromonovich, mustahkam sog‘liq, oilaviy xotirjamlik va mas‘uliyatli faoliyatingizda muvaffaqiyatlar, qardosh O‘zbekiston xalqiga esa tinchlik-osoyishtalik, taraqqiyot va ravnaq tilayman. Chuqur hurmat bilan, Gurbanguli BERDIMUHAMEDOV, Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga Hurmatli Shavkat Miromonovich, aziz qardoshim! Tavallud kuningiz munosabati bilan Sizga samimiy tabriklarim va eng ezgu tilaklarimni yo‘llashdan mamnunman. Siz olib borayotgan uzoqni ko‘zlagan va chuqur o‘ylangan siyosat tufayli O‘zbekiston Respublikasi har tomonlama rivojlanib, barcha sohalarida salmoqli yutuqlarga erishdi, iqtisodiy salohiyatini mustahkamlab, xalqaro maydonda katta obro‘-e‘tibor qozondi. Bularning barchasi Sizning buyuk davlat arrobi sifatidagi mashaqqatli faoliyatingiz va tinimsiz xizmatlaringizning bevosita natijasidir. Qardosh O‘zbekiston Sizning qat‘iy rahbarligingizda yildan-yilga yangi muvaffaqiyatlarga erishib, jahon miqyosida salmoqli yutuqlarni qo‘lga kiritayotgani bizni chin dildan quvontiradi va g‘ururlantiradi. Ozarbayjon va O‘zbekiston o‘rtasidagi xalqlarimizning qardoshligi, tarixi va milliy-madaniy qadriyatlariga asoslangan ko‘p qirrali aloqalarning bugungi yuksak darajaga ko‘tarilishida shaxsan Siz katta rol o‘ynadingiz. Sizning mamlakatlarimiz birdamligi va ittifoqchiligi yo‘lidagi qat‘iy va fidokorona faoliyatingiz Ilhom ALIYEV, Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti
--	---	---	--

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga Hurmatli Shavkat Miromonovich! Tavallud kuningiz bilan samimiy tabriklarimni qabul qiling. O‘zbekiston Respublikasining davlatchilikni mustahkamlash, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va xalqaro maydondagi nufuzini oshirish borasidagi muvaffaqiyatlari Siz olib borayotgan siyosatning to‘g‘riligi, shuningdek, O‘zbekiston xalqiga sadoqat bilan xizmat qilayotganingizning so‘zsiz tasdiq‘idir. Belarus — O‘zbekiston do‘stligi an‘analari Minsk alohida e‘tibor qaratayotgan ikki tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qilishiga qat‘iy ishonch bildiraman. Sizga, muhtaram Shavkat Miromonovich, mustahkam sog‘liq va O‘zbekiston farovonligi yo‘lida yangi va yorqin yutuqlarga erishish uchun bitmas-tuganmas kuch-g‘ayrat tilayman. Hurmat bilan, Aleksandr LUKASHENKO, Belarus Respublikasi Prezidenti	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga Hurmatli Prezident janoblari, aziz qardoshim! Sizni tavallud ayyomingiz munosabati bilan chin qalbidan tabriklagan holda, Yaratgandan Siz, Janobi Oliylariga sihat-salomatlik va xotirjamlik tilayman. Mushtarak tariximiz, tilimiz va madaniy qadriyatlarimizdan quvvat olayotgan munosabatlarnimiz birgalikdagi sa‘y-harakatlarimiz tufayli kundan-kunga rivojlanib bormoqda. Bugungi kundagi global sinovlarga qarshi Turkiy dunyoning farovonligi va taraqqiyotini ta‘minlash maqsadida ikki tomonlama va ko‘p tomonlama platformalarda, xususan, Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi hamkorligimizni yanada mustahkamlashga bo‘lgan irodamizga sodiqmiz. Ayni qat‘iyat Siz, aziz birodarim tomonidan ham baham ko‘rilayotgani menga cheksiz mamnuniyat bag‘ishlaydi. Fursatdan foydalanib, Siz, Janobi Oliylarini tavallud ayyomingiz bilan yana bir bor tabriklab, do‘st va qardosh o‘zbek xalqining taraqqiyoti va tinchligi yo‘lidagi sa‘y-harakatlarining muvaffaqiyatli davom etishini tilab qolaman. Rejep Tayyip ERDOĞ‘AN, Turkiya Respublikasi Prezidenti	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga Buyuk va sodiq do‘stim! Tug‘ilgan kuningiz munosabati bilan Misr xalqi va shaxsan o‘zinning nomidan eng samimiy tabriklarimni qabul qilgaysiz. Fursatdan foydalanib, Siz, Janobi Oliylariga cheksiz baxt, farovonlik hamda do‘st O‘zbekiston xalqining ravnaqi, tinchligi va barqarorligi yo‘lidagi sa‘y-harakatlarining muvaffaqiyatlar tilab qolaman. Chuqur hurmat va ehtirom ila, Abdulfattoh AS-SISI, Misr Arab Respublikasi Prezidenti	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga Janobi Oliylari! Sizni 68 yoshingiz bilan chin qalbidan tabriklashga ijozat bergaysiz. Koreya Respublikasi O‘zbekiston Respublikasining alohida strategik sherigidir. Hamkorlikning uzoq tarixi davomida mamlakatlarimiz o‘zaro taraqqiyot va farovonlik yo‘lida birgalikdagi sa‘y-harakatlarni amalga oshirib kelmoqda. Umid qilamanki, mamlakatlarimiz va xalqlarimiz o‘rtasidagi do‘stlik va hamkorlik munosabatlari mana shunday o‘ziga xos rishtalarga tayangan holda, turli sohalarida yanada mustahkamlanib boraveradi. Ushbu maqsadga erishish yo‘lida Siz bilan bundan Li Chje MYON, Koreya Respublikasi Prezidenti
---	--	--	--

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga Prezident Janobi Oliylari! Tug‘ilgan kuningiz munosabati bilan samimiy va iliq tabriklarimni qabul qiling. Shu yil iyun oyida boqiy moviy osmon yurti — qadimiy va go‘zal Mo‘g‘uliston-da do‘stona va samimiy ruhdagi uchrashib, birodarlik rishtalarini yanada mustahkamlaganimizni mamnuniyat bilan eslayman. Ikki xalqni azaldan ko‘chmanchilik an‘analari va tarixiy qadriyatlar bog‘lab turadi. Muhtaram Prezident, Siz bilan birgalikda ushbu ezgu an‘anani mustahkamlab, Mo‘g‘uliston va O‘zbekiston o‘rtasidagi munosabatlarni yanada yuksak, Keng qamrovli sheriklik darajasiga olib chiqqanimiz va shu tariqa ikki tomonlama munosabatlar tarixiga oltin harflar bilan bitiladigan yangi davrni boshlab berganimizdan chin dildan xursandman. Sizga, muhtaram Prezident va Sizning ajoyib oilangizga mustahkam sog‘liq, baxt-saodat va eng ezgu tilaklar, do‘st O‘zbekiston xalqiga esa ravnaq tilayman. Chuqur hurmat bilan, Uxnaagiyn XURELSUX, Mo‘g‘uliston Prezidenti	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga Prezident janoblari! Tug‘ilgan kuningiz munosabati bilan eng samimiy tabriklarimni qabul qiling. Fursatdan foydalanib, kecha tavallud kunim munosabati bilan menga yo‘llagan ezgu tilaklaringiz uchun Sizga samimiy minnatdorlik bildiraman. Toshkent va Rim o‘rtasidagi munosabatlarning muhimligi va izchil rivojlanib borayotganini tasdiqlovchi uchrashuvlarimizni alohida ilqilik bilan eslayman. Bizni tobora jadal rivojlanib borayotgan strategik sheriklik birlashtirib turadi va u bundan buyon ham muvaffaqiyatli mustahkamlanib va rivojlanib boraverishiga ishonaman. Ushbu fayzli kunda, muhtaram Prezident janoblari, Sizga va oilangizga baxt-saodat tilayman. Serjo MATTARELLA, Italiya Respublikasi Prezidenti	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga Hurmatli Prezident Janobi Oliylari! Tavallud ayyomingiz munosabati bilan Sizga o‘zinning eng samimiy tabriklarimni yo‘llashga va mas‘uliyatli faoliyatingizda yangidan-yangi ulkan muvaffaqiyatlar, oilaviy baxt-saodat, mustahkam sog‘liq va farovonlik tilashga ijozat bergaysiz. Sizning Sloveniyaga joriy yildagi rasmiy tashrifingizni katta mamnuniyat bilan yodga olaman. Ayni shu tashrif tufayli Sloveniya Respublikasi va O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasida turli darajalar va sohalarida faol va qizg‘in muloqot yo‘lga qo‘yildi, bu esa mamlakatlarimiz o‘rtasidagi muvaffaqiyatli hamkorlikning kelgusida yanada kengayishiga bo‘lgan ishonchimni mustahkamladi. Janobi Oliylari Sizga bo‘lgan yuksak ehtiromimni qabul qilgaysiz. Yuksak ehtirom ila, Natasha Pirs MUSAR, Sloveniya Respublikasi Prezidenti	<i>Quyidagilar ham o‘z tabriklarini yo‘llagan:</i>
---	--	--	--

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga Janobi Oliylari! Tug‘ilgan kuningiz munosabati bilan samimiy tabriklarimni qabul qilgaysiz. Sizga mustahkam sog‘liq va kuch-quvvat, O‘zbekiston Respublikasini muvaffaqiyat va farovonlik yo‘lidan olib borishda davom etishingizni tilayman. Fursatdan foydalanib, Serbiya — O‘zbekiston munosabatlari o‘zaro hurmat, suverenitet va hududiy yaxlitlikni qo‘llab-quvvatlash ruhida rivojlantirishga qaratayotgan e‘tiboringiz uchun Sizga minnatdorlik bildiraman. Murakkab geosiyosiy sharoitda bizning do‘stligimiz va hamkorligimiz yanada muhim Aleksandr VUCHICH, Serbiya Respublikasi Prezidenti	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga Janobi Oliylari! Tavallud ayyomingiz munosabati bilan Siz, Janobi Oliylariga o‘zinning eng samimiy tilaklarimni mamnuniyat ila yo‘llash meni cheksiz quvontiradi. Siz, Janobi Oliylariga mustahkam sog‘liq, baxt-saodat, do‘st O‘zbekiston Respublikasi Hukumati va xalqiga yanada farovonlik va taraqqiyot tilab qolaman. Samimiy salom va yuksak ehtirom ila, Shayx Mansur bin Zoid Ol NAHAYON, Birlashgan Arab Amirliklari vitse-prezidenti, Bosh vaziri o‘rinbosari, Prezident devoni raisi
---	---



**Erkin XOLMATOV,
Jizzax viloyati Ekologiya,
atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim
o‘zgarishi boshqarmasi boshlig‘i**

Muhimi, ushbu loyihalarning tub mohiyatida, avvalambor, hududning iqtisodiy salohiyatini oshirish orqali aholi farovonligini yuksaltirish, yangi ish o‘rinlari yaratish, hali foydalanilmagan ichki imkoniyatlarni ishga tushirish kabi oljanob maqsadlar mujassam. Shu sabab, xalqimiz doim davlatimiz rahbarining tashrifini intiqib kutadi, boshlangan xayrli ishlarga daxldor bo‘lishni istaydi. Qay



bir yurtdoshimiz bilan gaplashmag, ulkan bunyodkorlik jarayonlaridan shukronalik hissini tuyayotganiga, ertangi kunga bo‘lgan ishonchi ortib borayotganiga guvoh bo‘lishingiz mumkin.

Prezidentimiz ta‘kidlaganidek, har bir hudud o‘ziga xos salohiyat va imkoniyatlarga ega. Ammo ularni to‘liq ishga solish, real natijaga aylantirish uchun birinchi navbatda mahorati boshqaruv, xalq bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqot va keng qamrovli islohotlar zarur. Bugun yangi O‘zbekistonda ana shunday yondashuv amaliyotiga tabiiq etilmoqda.

Jizzaxga navbatdagi tashrif davomida ham viloyatning investitsiya salohiyati, sanoat va agrar tarmoqdagi imkoniyatlari, infratuzilimaviy

ehtiyotlari va aholi turmush tarzi har tomonlama tahlil qilindi. Muhimi, barcha tashrif va muloqotlar natijasida berilgan topshiriqlar bir kunlik emas, balki yillar davomida hudud rivojiga xizmat qiladigan aniq dastur va chora-tadbirlardir.

Prezidentimizning 22-iyul kuni Jizzax viloyatiga qilgan tashrfi markazida Jizzaxning sanoat salohiyati va “Zomin texnopark”i maxsus sanoat zonasida amalga oshirilayotgan katta loyihalar turdi.

Davlatimiz rahbari ta‘kidlaganidek, sanoatni dasht yolg‘ara olib kirish, yoshlarni ish bilan ta‘minlash va ularning iqtidorini rivojlantirish uchun zamin yaratish hududlarning to‘laqonli taraqqiyoti asosidir.

“Zomin texnopark”i da davlatimiz rahbarining 2024-yil 27-iyunda boshlab bergan 31 ta investitsiya loyihasi doirasida 1 milliard 200 million dollarlik qiymatdagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi rejalashtirilmoqda.



Shu zaminda voyaga yetgan inson sifatida aytishim mumkinki, kundan kunga kengayib borayotgan mazkur texnopark o‘mi yaqin-yaqingacha qapp-quruq dala edi. Bugun esa amalga oshirilayotgan islohotlarning, to‘g‘rirog‘i, ularga boshchilik qilayotgan ulkan islohotchining irodasi bilan mamlakatimizning barcha hududlarida iqtisodiyot uchun g‘oyat zarur bo‘lgan korxonalar barpo etilmoqda.

Bu yangi ish o‘rinlari yaratilishi, sanoat tarmoqlari rivojlanishi, pirovardida xalqimiz farovonligi oshishiga xizmat qilyapti. Uning ilk natijalarini zominliklar allaqachon o‘z hayotida his qilmoqda. Chunki yaqinda “Xinjiang Honglin Tiandi” kompaniyasi tomonidan qiyomat 10 million dollarlik beton mahsulotlari tayyorlash loyihasingin ishga tushirilishi sabab 60 kishining bandligi ta‘minlandi.

Quvonarlisi, bu korxona yangi-yangi loyi-halarning debochasi. Ayni kunlarda 42 million dollarlik ikkinchi loyiha bo‘yicha ishlar yakuniy bosqichida. Unda “Midea” brendi ostida yiliga 300 ming dona maishiy elektr texnikalari ishlab chiqariladi, 150 ta ish o‘mi ochiladi.

Umuman, sanoat zonasidagi barcha loyihalar natijasida qariyb 5 trillion so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqariladi, 15 turgadi yangi mahsulot o‘zlashtirilib, 70 million dollarlik eksport salohiyati yaratiladi. Eng muhimi,

66

Jizzaxning turfa tabiati, tog‘li va cho‘l hududlari yilning to‘rt faslida ham sayohat qilish imkonini beradi. “Zomin” turistik-rekreatsion zonasi, Zomin aeroporti va yangi yo‘llar bu imkoniyatlarni yanada kengaytiradi. Yirik 6 ta kanal bo‘yida sayilgohlar tashkil qilindi. Endi “Aydar-Arnasoy” ko‘llar tizimi qirg‘oq bo‘yida ham zamonaviy turizm markazi barpo etiladi.

5 mingdan ortiq fuqaro ishli bo‘ladi hamda O‘zbekistonni mintaqaviy “elektrotexnika xabi”ga aylantirish vazifasi uddalanaadi.

Prezidentimiz viloyatda amalga oshirilayotgan loyihalar bilan yaqindan tanishib, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va strategik ahamiyatini yuqori baholadi. Hech shubhasiz, sanoat, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish sohalarida amalga oshiriladigan yangi loyihalar Jizzax iqtisodiyotida yangi sahifa ochadi.

Jizzaxning turfa tabiati, tog‘li va cho‘l hududlari yilning to‘rt faslida ham sayohat qilish imkonini beradi. “Zomin” turistik-rekreatsion zonasi, Zomin aeroporti va yangi yo‘llar bu imkoniyatlarni yanada kengaytiradi. Yirik 6 ta kanal bo‘yida sayilgohlar tashkil qilindi. Endi “Aydar-Arnasoy” ko‘llar tizimi qirg‘oq bo‘yida ham zamonaviy turizm markazi barpo etiladi.

Yuqorida ta‘kidlaganidek, Prezidentimizning har galgi tashrfi bizni yangi maralarga ruhlantirib, imkoniyatlarimizdan yanada samarali foydalanishga undaydi. Shu

nuqtayi nazardan, navbatdagi tashrif davomida ko‘tarilgan masalalar, qo‘yilgan vazifalar, shubhasiz, juda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Ayniqsa, tashrif davomida markaziy masala bo‘lgan sanoatni rivojlantirish bo‘yicha belgilangan ishlar o‘ta muhim. Iqtisodiy sohalarining rivojlanishi aholining maishiy sharoitini, ijtimoiy infratuzilmini yaxshilash imkonini beradi. Natijada viloyatning har bir tumani markazidan tortib, olis qishloq va mahallalargacha obod qilish imkoniyati yaratiladi.

Xulosa qilib aytganda, tashrif davomidagi belgilangan maqsad va vazifalar ijrosi, hech shubhasiz, kelgusida asrlarga tatigulik bunyodkorlik jarayonini, salmog‘i va ko‘lamini oqqidi tafakkur qamrab olishga oqizlik qiladigan islohotlarni jadallashtiradi. Ushbu jarayonda biz, viloyat faollari, deputatlar, keng jamoatchilik vakillari davlatimiz rahbari o‘rtaga tashlagan takliflar, tavsiya va topshiriqlar ijrosini ta‘minlashda kamarbasta bo‘lamiz.

Ortga qaytmas islohotlar

Yillar o‘tadi. Yangi O‘zbekiston tarixini o‘rganuvchilar ko‘z o‘ngida davlat rahbarining faoliyatidagi xalqparvarlik fenomeni, ulug‘ maqsad yo‘lidagi fidoyiligi, xalq bilan muloqot qanday yo‘lga qo‘yilgani, yangi davr avlodini tarbiyalash kabi bir-biridan muhim vazifalar ijrosi qanday amalga oshirilgani yaqqol namoyon bo‘ladi. Yangi O‘zbekistonning kuchli moddiy va ma‘naviy salohiyati ularni, shubhasiz, ruhlantiradi.

XALQPARVARLIK FENOMENI

YANGI O‘ZBEKISTON TARIXI QANDAY YOZILMOQDA?



Ahmadjon MELIBOYEV,
O‘zbekistonda xizmat
ko‘rsatgan jurnalist

Boshlanishi 1-betda

Markaziy Osiyo xalqlari murakkab va qaltis sharoitda o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritdi, iqtisodiy iskanja girdobida qolgan bo‘lsa-da, orqaga chekinmay, qi-yinchiliklarni sabr-bardosh bilan yengib, milliy rivojlanish va taraqqiyot yo‘lini belgilab oldi. O‘zbekistonning bu yo‘lda erishgan olamshumul yutuqlari bugun nafaqat mintaqada, dunyo miqyosida ham rasman e‘tirof etilmoqda.

Mana, o‘ttiz to‘rt yildirki, emin-erkin, haq-huquqimizni tanib, dunyo kengliklariga intilib yashamoqdamiz. Biz dunyoga, dunyo bizga bag‘rini ochmoqda. Istiqloлга tengdosh farzandlar yangi davr, yangi jamiyat bag‘rida voyaga yetdi, yonimizga kirdi, millatning yangi zamon farzandlari, yangicha fikrlaydigan rahbarlariga aylandi. Bu o‘zgarishlar bir qarashda e‘tiborga molik voqea emasday tuyuladi. “Avvallari ham shunday bo‘lgan-ku, tug‘ilish, voyaga yetishning nimasi yangilik”, deyishlari mumkin. Ammo bu — tor qobiqli fikr. Kindik qoni to‘kilgan ozod vatanda tug‘ilib, qon tomirlarida so‘nmagan milliy hayot tarzi, o‘z qarashlarining bilan voyaga yetish boshqa! Bu — buyuk baxt, ilohiy ne‘mat.

O‘z otini minib, o‘zi tanlagan yo‘ldan yurgan fikri tiniq, borar manzili aniq odam hech qachon adashmaydi. O‘zbekiston milliy va umuminsoniy qadriyatlar mustarakligida buyuk kelajak sari murakkab safarga otlar ekan, mana shu sifatlarni o‘zida jam qilgani uchun ham niyatiga yetdi. Bizni chalg‘itmoqchi bo‘lganlarning o‘zi chalg‘idi. Bizga qarab miyig‘ida kulganlarning o‘zi bugun kulgi ostida qoldi.

O‘tgan davr ichida mamlakatimizning iqtisodiy, siyosiy hamda ma‘naviy-ma‘rifiy asoslari mustahkamlandi, yangi avlod tarbiyasi yo‘lga qo‘yildi. Tadbirkorlik, ishbilarmonlik mamlakat miqyosida quloch yozdi. Jamiyatda yangi mulkdorlar sinfi shakllandi, xususiy mulkka, mulkdorlarga munosabat o‘zgardi. Diniy e‘tiqod uchun ta‘qib qilishga barham berildi. Odamlar o‘z mehnatlari samaralaridan to‘la bahramand bo‘lish, daromadlariga yarasha turmush kechirish, zurriyotlariga meros qoldirish huquqiga ega bo‘ldi.

Jamiyatning bugungi ilg‘or vakillari safiga ko‘z tashlaylik — ularning har ikkinchisi tadbirkor, ishbilarmon, ikki-uch tilda byiron so‘zlasha oladigan, o‘tmish ajdodlar qoldirgan ma‘naviy merosdan boxabar yoshlar. Vodiylilik, vohalik dehqon, bog‘bon, chorvador yoki qurovchining o‘g‘li, qizi, nabirasi bugun dunyoning manaman degan oliygohlarida tahsil olmoqda, ilmiy izlanishda, o‘qish va uqishda yevropalik

tengdoshlaridan ortda qolayotgani yo‘q. Bundan uch ming yil avval yaratilgan “Kalila va Dimna” asarida ham “Yoshlar tarbiyasi buzilib ketyapti, bu juda xavotirli” degan hadik bor. Xato joyi yo‘q bu gapning. Ammo biz, katta avlod vakillari hech ikkilanmay bugungi yoshlardan o‘rganishimiz, ulardan ibrat olishimiz ham kerak. Yosh mutaxassislardan, iste‘dodli yigit-qizlardan zamonaviy tushunchalarni so‘rash, tushunib olish ayt bo‘lmay qoldi. Ushbu maqolani yozayotganimda, nima bo‘ldi-yu, kompyuter aynidi. Nabiram kerakli tugmachalarini bosib, to‘g‘rilab berar ekan, menga mayin jilmayib qaradi. Uning beg‘ubor tabassumida istiqlolimizning buyuk bo‘y-bastini ko‘rganday bo‘ldim.

Sobiq tuzum sharoitida shunday bo‘lishi mumkinmidi?! Ota-bobolarimiz: “Qani endi, bir zamon kelsa-yu, qiblaga qarab qo‘lingni duoga bemalol ochsang, haj ibodatini ado etsang, o‘g‘il-qizingni imon-e‘tiqodli qilib tarbiyalasang, o‘tmish ajdodlarga yotsirab qaramasang”, deya umid qildi. Taassufki, bu umidlarning umidligicha qolib ketdi. Uzoq yillar davomida o‘zligimizni idrok etmay yashadik. Sobiq tuzum mafkurasiga bunga yo‘l bermadi.

Qadim zamonlardayoq tan olingan haqiqat shuki, qayerda tadbirkorlikka rag‘bat berilsa, o‘sha joy obod bo‘ladi, el-yurtida tinchlik-totuvlik hukm suradi, dasturxonga fayz kiradi. Sobiq tuzum mana shu oddiy haqiqatni tushunmadi, aniqrog‘i, tushunishni istamadi. Qo‘lqul, ishchan, harakatchan odamlarning qo‘l-oyog‘ini bog‘lab, tadbirkorlikni jinoiy xatti-harakatga tenglashtirdi va oxir-oqibat o‘zi tanazzulga yuz tutdi.

O‘zbekiston rahbarligiga kelgan Shavkat Mirziyoyev faoliyatini mamlakatda mavjud xalq hokimiyati faoliyatini amalda

Istiqlolimizning o‘ttiz to‘rt yilligi yaqinlashib kelayotgan shukuhli kunlarda har bir kishi, u qaysi sohada bo‘lmasin, bu yillarni qanday bosib o‘tdik, qanday kurash va qarshiliklarga duch keldik, qayerda sustlashdik, turkiy qavmlar o‘rtasidagi ming yillik mehr-oqibat rishtalari qanday uzildi degan savollar qarshisida o‘ylanadi. Ana shu muammolarga yechim topish, ota-bobolarimiz birga bosib o‘tgan do‘stlik, bag‘rikenglik yo‘llarini tiklash, sun‘iy to‘siqlarni olib tashlash, bu buyuk harakatga chinakam boshchilik qilish oson bo‘ldi deysizmi?! Qat‘iy iroda, matonatli intilishning samarasi bu.

mustahkamlashdan boshladi. Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak degan ulug‘ shiorni dadil o‘rtaga tashladi. Mamlakatning barcha hududlarida Prezidentning xalq va virtual qabulxonalari tashkil etildi. Xalqni eshitish, muammolarni hal etishdek buyuk jarayon boshlandi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Yangi rahbarning “**Odamlar olis kelajakda emas, bugun o‘z hayotidan rozi bo‘lib yashashi kerak**”, “**Xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va qudratli bo‘ladi**”, degan so‘zlari el-yurtida yangi umid uchqunlarini uyg‘otdi, mamlakatda ijtimoiy faollikning sezilarli darajada oshishiga turki berdi. Bu faollik oradan ko‘p o‘tmay ijobiy samarasini berdi. Bugungi O‘zbekiston milliy istiqlolning dastlabki yillaridagi O‘zbekistondan keskin farq qiladi. Bugun u dunyo deb atalmish ulug‘ cheksiz ummunda shiddat bilan suzib borayotgan, ko‘zlagan maqsadi aniq zamonaviy kemaga o‘xshaydi. Shavkat Mirziyoyev hech bir



davlat bundan buyon o‘z holicha, yaqin qo‘shnilaridan, dunyo davlatlaridan uzilgan holda yashay olmasligini chuqur anglagan holda sobiq tuzumdan qolgan taqiqlarni bekor qilish, manfaatli hamkorlik aloqalarini tiklash, necha ming yillardan beri ota-bobolarimiz birga qadam tashlagan yo‘llardagi sun‘iy to‘siqlarni olib tashlash, yon qo‘shnilarga hurmat-ehtirom ko‘rsatish, eski gina-kuduratlarni unutib, asrlar, davrlar sinovidan o‘tgan qon-qardoshlik rishtalarini mustahkamlash yo‘lini tutdi. Odamlarning erkin harakat qilishini cheklaydigan xorijga chiqish vizalari singari umrini o‘tab bo‘lgan o‘tmish qoldiqlari bekor qilindi. Inson huquqlarini himoya qilish masalalari bo‘yicha milliy va xalqaro nodavlat tashkilotlar bilan ochiq muloqot boshlandi. Markaziy Osiyoning qadimiy davlati hisoblangan O‘zbekistonda hozir dunyoning ko‘p mamlakatlari uchun ham ibrat namunasi bo‘la oladigan muhim iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda.

Shu o‘rinda BMT Bosh kotibi Guterrish janoblarining Toshkentda aytgan quyidagi e‘tirofini keltirib o‘tish zarur: “Markaziy Osiyoga tashrifimni O‘zbekistondan boshladim. Sababi oddiy. Mening mintaqa kelajagiga bo‘lgan barcha umidlarim siz, janob Prezident bilan, shuningdek, mamlakatingizda keyingi yillarda muvaffaqiyatli amalga oshirayotgan tashabbuslaringiz bilan bog‘liq. Birinchi navbatda islohotlarning yuksak samarasini qayd etishni istardik, biz buni chinakam tarixiy yutuq deb bilamiz. Mamlakatingizga birinchi marta bundan yigirma yil avval kelganman. Ikkinchi marta prezidentlik faoliyatiga kirishgan dastlabki paytingizda kelgandim. Bu gal esa sizning boshchiligingizda amalga oshirilayotgan hayratlanarli o‘zgarishlarni ko‘rdim. Siz yaqin o‘tmishdan meros qolgan murakkab muammolarni hal qilishingizga to‘g‘ri keldi. Shunga qaramay, endi O‘zbekiston o‘z fuqarolarining huquqlarini himoyalash, manfaatlarini ta‘minlash kabi qat‘iy rivojlanish yo‘lidagi og‘ishmay bormoqda. Men avvallari BMTning qochqinlar ishlari bo‘yicha oliy komissari sifatida Markaziy Osiyoga tashrif buyurganimda, shuni aytishim zarurki, ushbu mintaqada davlatlari o‘rtasida biror masalada o‘zaro yaqinlik bo‘lmagan. Qaysi davlatga kelsam, faqat qo‘shnilarni tanqid qilishlarini eshitardim, xolos. Endigi haqiqat shuki,

janob Prezident, sizning sharofatingiz bilan vaziyat tubdan o‘zgardi. Siz mintaqada davlat rahbarlari darajasida haqiqiy hamkorlik va ishonch ruhini yaratishga erishdingiz”.

Siyosiy kuzatuvchilar Shavkat Mirziyoyevni o‘z yurtini dunyoga yanada ko‘proq va samaraliroq ochilishini



ko‘zlayotgan, xalqimiz baxti va saodatini ko‘rishni o‘zining bosh maqsadi deb bilgan, milliy taraqqiyotni milliy yuksalish darajasiga ko‘tarish uchun astoydil bel bog‘lagan, bu maqsadlarga erishish yo‘lida hech qachon ortga qaytmaydigan qat‘iyat va matonatli o‘zbek yetakchisi sifatida bir vaqlar Xitoy iqtisodiyotini mislsiz yuksalishga olib chiqqan Den Syaov Pinga qiyoslashadi. Bu e‘tirof bejiz emas. Den muallim dunyo iqtisodiyotiga doir muhim darsliklar, ilmiy-amaliy qo‘llanmalardan o‘rin olgan “Ochiq eshiklar siyosati”ni yo‘lga qo‘ygani bilan mashhur bo‘lgan rahbardir. U turli sabablarga ko‘ra mamlakatdan chiqib ketgan, xorijda tadbirkorlik qilayotgan sarmayador xitoyliklarga ishonch va samimiylilik bilan: “Yurtga qaytinglar, biz sizlarga yanada yaxshi imkoniyat yaratib beramiz, daromadigingiz huquqiy kafolatlanadi, unga hech kim ko‘z tikmaydi” degan o‘ta mas‘uliyatli shiorni o‘rtaga tashladi va bu so‘zida qat‘iy turdi ham. Shu chorlov mamlakat iqtisodiyotini oyog‘ga turg‘izdi, odamlar yangi davr shabadasini sezdi. Yaponiyaning sobiq bosh vazirlaridan biri Tanaka jurnalistlarning yer osti boyliklarini qazib olishda turli davlatlarning muayyan ulush hisobiga hamkorligi nechog‘liq zarur degan savolga: “Birgalashib qazish muhim emas, bu boylik qayerda bo‘lsa ham insonga xizmat qilishi muhim”, degan edi.

Shu o‘rinda ba‘zi kuzatuvchilarning bir “xavotir”iga to‘xtalib o‘tish zarur. Shavkat Mirziyoyev mamlakatning nochorlanib qolgan iqtisodiyotini modernizatsiya qilish

yo‘llari haqida o‘ylar ekan, bu jarayonda rivojlangan davlatlar bilan samarali hamkorlik qilishdan boshqa natijador yo‘l yo‘qligiga ishonch hosil qildi, bu zarurati ayrim rahbarlardan ko‘ra avvalroq angladi, dunyoviy tajribaga tayandi, yon qo‘shnilar bilan muhim aloqalarni yo‘lga qo‘ydi. Markaziy Osiyo va Kavkaz institutining “Ipak yo‘li” dasturi direktori Svante Kornell o‘zbeklag bag‘rikenglik bilan dunyo uchun, yondosh qo‘shnilar uchun ochilayotgani, yangi Prezident yuritayotgan tashqi siyosat bu jihatdan “yoqimli va hayratlanarli” ekanini qayd etgani yodimda. Bu ochiqlik mamlakatimizga juda katta miqdorda investitsiya olib kelmog‘da.

Yana bir xavotir — ba‘zi mutaxassislar O‘zbekistonning tashqi qarzi oshib borayotganini urg‘ulaydi. Aslida, iqtisodiy jihatdan baqvvat davlatlar ham qarz ko‘taradi. Gap uni nimaga, qanday maqsadni ko‘zlab ishlashda. Masalan, AQSHning joriy yil uchun davlat qarzi (ichki va tashqi qarz) 36 trillion 386 milliard dollarga teng. Yaponiyaning 2023-yilgi qarzi mamlakat yalpi ichki mahsulotiga nisbatan 230 foizni tashkil etadi. Shunday bo‘lsa-da, mamlakat iqtisodiyotida jiddiy muammo yo‘q, aksincha, o‘shib bor.

Prezidentimizning 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonida davlat qarzlarini samarali boshqarish bo‘yicha chora-tadbirlar aniqlaravshan belgilab qo‘yilgan. Xususan, iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori

Prezidentimizning 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonida davlat qarzlarini samarali boshqarish bo‘yicha chora-tadbirlar aniqlaravshan belgilab qo‘yilgan. Xususan, iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori

Davlatimiz rahbari O‘zbekistonning jahonga integratsiyalashuvini amalda yangi bosqichga olib chiqdi. Bugun yurtimizda yirik xalqaro anjumanlar o‘tkazish, ba‘zan g‘oyat murakkab muammolarni birgalikda muhokama qilish oddiy voqea bo‘lib qoldi. Bir misol. Sobiq tuzumdan keyin paydo bo‘lgan MDH tashkilotining sammiti dastlabki yigirma besh yilda O‘zbekistonda biror marta ham o‘tkazilmadi. Bu tuzilmaning labbaychi faollari paydo bo‘ldi.

o‘sinh sur‘atlarini ta‘minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni 1,6 baravar, 2030-yilga borib aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadni 4 ming dollardan oshirish, daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoriga kirish uchun zamin yaratish, davlat budjeti taqchilligini qisqartirish, 2023-yildan e‘tiboran yalpi ichki mahsulotga nisbatan uning 3 foizdan, davlat qarzini boshqarishda yiliga yangi jalb qilingan tashqi qarz miqdori 4,5 milliard dollardan oshib ketmasligini ta‘minlash maqsad qilingan. Demak, xavotirga o‘rin yo‘q. Qarzdin qarzning farqi bor. Olingan qarzdan maqsadli, unumli foydalanish xalqning yashash tarzi va xarid quvvatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Davlatimiz rahbari O‘zbekistonning jahonga integratsiyalashuvini amalda yangi bosqichga olib chiqdi. Bugun yurtimizda yirik xalqaro anjumanlar o‘tkazish, ba‘zan g‘oyat murakkab muammolarni birgalikda

muhokama qilish oddiy voqea bo‘lib qoldi. Bir misol. Sobiq tuzumdan keyin paydo bo‘lgan MDH tashkilotining sammiti dastlabki yigirma besh yilda O‘zbekistonda biror marta ham o‘tkazilmadi. Bu tuzilmaning labbaychi faollari paydo bo‘ldi. Shavkat Mirziyoyev 2020-yilda Hamdo‘stlikka raislikni qabul qilgan ekan, navbatdagi sammitni O‘zbekistonda o‘tkazishni taklif qildi va bunga erishdi ham. O‘zbekiston MDH davlatlari orasida munosib nufuziga ega bo‘ldi. O‘zbekistonning Turkiy tilli davlatlar kengashidagi ishtiroki, davlatimiz rahbarining amaliy taklif va tashabbuslari bu muhim tashkilot faoliyatini jonlantirdi, desak xato bo‘lmaydi.

Markaziy Osiyo davlatlari uzoq yillar davomida sobiq tuzumning yopiqlik siyosati ostida qolib ketdi. Bir-biriga yondosh besh mamlakatga o‘z imkoniyatlaridan foydalanish, dunyo hamjamiyatining to‘laqonli a‘zosiqa aylanish imkoniyati berilmadi. Shavkat Mirziyoyevning amaliy pragmatik siyosati bois, O‘zbekistonda mutlaqo yangi islohotlar to‘liqini yuzaga keldi va bu jarayon mintaq hamda dunyo siyosatida sezilarli bulirish yasadi, tarixiy ildizlari bir qo‘shni mamlakatlarda ham ijobiy aks sado berdi.

Istiqlolimizning o‘ttiz to‘rt yilligi yaqinlashib kelayotgan shukuhli kunlarda har bir kishi, u qaysi sohada bo‘lmasin, bu yillarni qanday bosib o‘tdik, qanday kurash va qarshiliklarga duch keldik, qayerda sustlashdik, turkiy qavmlar o‘rtasidagi ming yillik mehr-oqibat rishtalari qanday uzildi degan savollar qarshisida o‘ylanadi. Ana shu muammolarga yechim topish, ota-bobolarimiz birga bosib o‘tgan do‘stlik, bag‘rikenglik yo‘llarini tiklash, sun‘iy to‘siqlarni olib tashlash, bu buyuk harakatga chinakam boshchilik qilish oson bo‘ldi deysizmi?! Qat‘iy iroda, matonatli intilishning samarasi bu. Yangi O‘zbekistonning iqtisodiy-siyosiy, ma‘naviy-ma‘rifiy hayotida, jamiyat tizimida, odamlar ong-tafakkuri, turmush tarzi, o‘zlikni anglash darajasida yuz bergan va muttasil yuz berayotgan o‘zgarishlarning salmog‘i, bugungi ilg‘or dunyo darajasida baholaganda qanchalar tush bosishi, uzoq yillar biz o‘ylagan, ishongan maqsad-muddaogacha nechog‘liq mosligi haqida xolisona mushohada yuritishimiz kerak. Bu xususda uzoq-yaqin do‘stlarimiz, strategik hamkorlarimiz, xalqaro kuzatuv tashkilotlari, moliya-iqtisod mutaxassislari ijobiy fikr bildirmog‘da, dunyo matbuoti o‘z so‘zini aytayotir, shu bilan birga, bizni uzoqdan, uzoqroqdan shunchaki, “Qani, ko‘raylik-chi”, deya kuzatib turganlar, tortinbroq bo‘lsa-da, hulas qillarli yutuqlarimizni tan olishga, avaga qiziqish bildirishga, biz bilan manfaatli hamkorlik qilishga majbur bo‘layotganlari sir emas. Qozonda bo‘lsa, cho‘michga chiqadi. Bugun talato‘pli dunyo diqqat-e‘tiboriga tushish, ishonchini qozonish, o‘rni kelganda, ibrat va namuna ko‘rsatishi oson ish emas. Shunday ekan, jamiyatda yuzaga kelayotgan, shakllanayotgan ijtimoiy fikr, har bir kishining o‘z xulosasi katta ahamiyatga ega.

Yangi O‘zbekistonning yangi yo‘li inson huquqi va erkinliklarini amalda himoya qilish, jamiyatning har bir a‘zosiqa o‘z salohiyatini hech bir to‘siqsiz namoyon etish, orzu-niyatlarining ro‘yobini ko‘rish, zahmatli mehnati, izlanishlari samaralaridan emin-erkin foydalanish, bu yorug‘ olamda inson maqomida yashar ekan, o‘z hayotidan, imon-e‘tiqodidan, farzandlarining kamolidan bugun rozi bo‘lishini ta‘minlash edi. Shu maqsadda sobit turibmiz. Orqaga qaytish yo‘q. Mamlakat iqtisodi davlatimiz

rahbari belgilab bergan, xalqimiz qo‘llab-quvvatlagan strategik taraqqiyot dasturi asosida silkinish va depisinishlarsiz bir maromda, maqsadga muvofiq yo‘nalishda rivojlanmoqda. Inson qadri, uning huquq va manfaatlari ulug‘lanadigan ijtimoiy davlatga aylanib borayotirmiz, bandlikni ta‘minlash, yangi zamonaviy ish o‘rinlarini yaratish, kambag‘allikni qisqartirish, yordamga muhtoj toifalarni qo‘llab-quvvatlash bosh vazifaga aylangani bor gap.

Yillar o‘tadi. Yangi O‘zbekiston tarixini o‘rganuvchilar ko‘z o‘ngida davlat rahbarining faoliyatidagi xalqparvarlik fenomeni, ulug‘ maqsad yo‘lidagi fido-yilligi, xalq bilan muloqot qanday yo‘lga qo‘yilgani, yangi davr avlodini tarbiyalash kabi bir-biridan muhim vazifalar ijrosi qanday amalga oshirilgani yaqqol namoyon bo‘ladi. Yangi O‘zbekistonning kuchli moddiy va ma‘naviy salohiyati ularni, shubhasiz, ruhlantiradi.


Odamzod olov yoqishni o'rgangan paytdan to bugungi zamonaviy texnologiyalar asosida energiya ishlab chiqarishgacha bo'lgan uzoq yo'lni bosib o'tdi. Oraliqdagi har bir rivojlanish pog'onasi energiya manbalariga bo'lgan ehtiyoj va zaxira yaratish bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Aynan energiya ta'minoti tufayli sanoat inqilobi yuz berdi, shaharlar barpo etildi, jahon iqtisodiyoti shakllandi va bugun raqamli davrga qadam qo'yildi.

Biroq bu taraqqiyot ortidan o'ziga xos global muammolar ham yuzaga keldi. So'nggi o'n yilliklarda insoniyat tobora chuqurlashayotgan energetik inqiroz bilan yuzma-yuz kelmoqda. Neft, gaz, ko'mir kabi an'anaviy yonilg'i va yoqilg'i manbalari cheklangan bo'lib, ularning zaxiralari kamayib bormoqda. Shu bilan birga, ushbu resurslarni qazib olish va yoqish jarayonlari ortidan havo ifloslanmoqda, global isish jadallashmoqda, iqlim o'zgarishlari esa butun dunyoda tabiiy ofatlarning ko'payishiga sabab bo'layotir. Bu esa zamonaviy ilm-fan oldiga yangi, dolzarb savollarni qo'ymoqda.

Bu holatda yashil energiya, ya'ni qayta tiklanadigan energiya manbalariga murojaat qilish nafaqat ekologik ehtiyoj, balki strategik zaruratga aylanib borayotgani hech kimga sir emas. Quyosh nurlari, shamol oqimi, ayniqsa, gidroenergiya kabi tabiiy manbalar asosida ishlab chiqariladigan energiya ekologik toza, barqaror va uzoq muddatli yechim sifatida e'tirof etilmoqda. Gidroenergiya, ya'ni suv oqimidan elektr energiya olish texnologiyasiga bugungi kunda global miqyosda katta e'tibor qaratilmoqda.

So'nggi yillarda mamlakatimizda "yashil iqtisodiyot" tamoyillari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bunday yondashuv nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki iqtisodiy barqarorlik, energetik mustaqillik va sanoat salohiyatini oshirishga ham xizmat qilmoqda. Ayniqsa, energetika sohasida mahalliyashtirish jarayonlarining izchil ilgirilashi ushbu yo'nalishdagi yutuqlarning asosiy omiliga aylandi.

Energiya manbalarini bejiz birinchilardan asosida ishlab chiqarish nafaqat iqtisodiy mustaqillikni, balki milliy xavfsizlikni ta'minlashda ham hal



qiluvchi ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan, gidroenergetika tarmog'ining rivojlanishi mamlakatimizda energetik barqarorlikni mustahkamlash va sanoat infratuzilmasini yangilashda strategik ahamiyat kasb etishi shubhasiz.

Gidroenergetika nafaqat barqaror elektr ta'minotiga erishishga, balki qishloq xo'jaligi, kommunal xizmatlar va aholi turmush darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Suv resurslaridan oqilona foydalanish orqali suv tejovchi texnologiyalar joriy etilib, sug'orish tizimlari yaxshilanmoqda va shu tarzda ekologik muvozanat saqlanishiga harakat qilinayapti.

Oxirgi sakkiz yilda amalga oshirilgan yirik loyihalar natijasida mamlakatda gidroenergetika salohiyati sezilarli darajada kengaydi. Yangi gidroelektr stansiyalar barpo etilishi va mavjudlarining modernizatsiya qilinishi hisobiga qariyb 430 megavatt hajmdagi gidroenergetik quvvat manbai yaratilib, amaldagi ishlab chiqarish quvvatlari hajmi 2,3 gigavattga yetkazildi. Bu esa gidroenergetika ulushini umumiy energiya ishlab chiqarishda keskin ko'tarib, barqaror elektr ta'minoti bilan keng qamrovli hududlarni ta'minlash imkonini yaratdi.

Shu bilan birga, gidroelektr stansiyalari qurilishi katta mablag' va texnik resurslarni talab qiladi. Jihozlarning xorijdan olib kelinishi esa xarajatlarni ancha oshiradi, loyihalarni qimmatga tushiradi va qurilish muddatlarini cho'zib yuboradi. Bu esa iqtisodiy samaradorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin edi.

Mazkur muammoni hal etish maqsadida mamlakatimizda gidroenergetika sohasida

mavjud 10 ta zavoddan biri hisoblanadi. Bu esa O'zbekistonning nafaqat iste'molchi, balki yuqori texnologik mahsulotlarni eksport qiluvchi mamlakat sifatida shakllanishiga zamin yaratmoqda.

Xo'sh, ushbu zavodning mamlakat iqtisodiyoti va energetika sohasidagi ahamiyati



nimada? Eng avvalo, mahalliy ishlab chiqarish yo'lga qo'yilishi hisobiga importga bo'lgan qaramlik kamaydi. Bu esa milliy iqtisodiyotga tushadigan bosimni yengillashirdi. Shu bilan birga, mahalliy jihozlar tez va arzon yetkazib berilayotgani sabab GESlarni qurish va qayta jihozlash jarayonlari samaradorligi oshdi. Yanada muhimi, yangi ish o'rinlari yaratildi, mahalliy mutaxassislar malakasi oshmoqda.

Bu jarayonlar mahalliy ishlab chiqaruvchilarning innovatsion salohiyatini rivojlantirishga, hududiy eksportimkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, yaqin qo'shni mamlakatlar bilan sanoat kooperatsiyasi yo'lga qo'yilishi mintaqada yurtimiz nufuzini oshirayotgani ham bor gap.

— Zavodda "Made in Uzbekistan" milliy brendi asosida quvvati 1 kilovattidan 40 megavattgacha bo'lgan gidroagregatlar, turbinalar va generatorlar, shuningdek, respub-

likamizda avval ishlab chiqarilmagan 14 turdagi suv-nasos agregatlari hamda GES va suv omborlarining gidrotexnik inshootlari uchun turli o'lchamdagi metall konstruksiyalar (zatvorlar, yirik metall quvurlar, panjaralar va boshqalar) ishlab chiqariladi, — deydi zavod direktori G'olib Pardayev.

O'zbekistonda gidroenergetika sanoatini barqaror va samarali rivojlantirish uchun faqat yangi elektr stansiyalarini barpo etish emas, balki ularni kerakli jihozlar bilan ta'minlaydigan texnologik bazani mamlakat ichida shakllantirishga ham ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Ayni holatda asosiy yo'nalishlardan biri sanoat kooperatsiyasi va chuqur mahalliyashtirish jarayonlaridir. Bu nafaqat xalqaro texnologiyalarni o'zlashtirish, balki milliy sanoat salohiyatining ortganini ham yaqqol ko'rsatmoqda.

Yana bir muhim jihat mahalliy ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligidir. "UzHydroPower" tomonidan ishlab chiqarilayotgan gidroagregatlar narxi xorijiy analoglar bilan taqqoslaganda ancha arzon. Masalan, Xitoydan olib kelinadigan uskunalariga nisbatan 12 foizga, Rossiya mahsulotlariga qaraganda esa 27 foizgacha tejankor varianti sifatida taklif qilinmoqda. Bu esa investitsiya xarajatlarini kamaytirish, loyihalarni tezroq amalga oshirish va umumiy qurilish xarajatlarini optimallashtirish imkonini yaratadi.

Mahalliy ishlab chiqarish orqali importga bo'lgan qaramlik keskin kamayib, ichki sanoat resurslariga tayangan mustaqil ta'minot zanjiri vujudga kelmoqda. Bu esa mamlakatimizning energetik xavfsizligi va texnologik mustaqilligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Zavodning yuqori samaradorligi va sifatli mahsulotlari tufayli 2026-yildan boshlab qo'shni davlatlarga tayyor gidroenergetika uskunalarini eksport qilish rejalashtirilgan. Bu orqali O'zbekiston nafaqat ichki ehtiyojni qondiruvchi, balki mintaqaviy darajada raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqaradigan davlat sifatida shakllanishi ko'zda tutilmoqda.

Korxonada 250 dan ortiq ish o'rni yaratilgan bo'lib, ularning 40 foizini malakali ayollar tashkil etadi. Bu esa gender tengligi siyosatini amalga oshirish, ayollarni sanoat sohaslariga keng jalb qilish va ularning ijtimoiy faolligini oshirishda muhim qadam hisoblanadi.

Zavod infratuzilmasi ham zamonaviy talablarga javob beradigan darajada tashkil etilgan. Hozirgi kunda 5 ta sexda 80 ga yaqin yuqori texnologiyali uskunalar o'rnatilgan.

Ushbu uskunalar orqali yuqori aniqlikda mahsulot tayyorlash, sifat nazoratini amalga oshirish va texnik me'yorlarga to'liq rioya qilish mumkin.

Kadrlar tayyorlash masalasida ham jiddiy yondashuv mavjud. 2024-yilda 7 nafar mutaxassis Xitoyning "Zhejiang Jinlun Electromechanic Co., Ltd" korxonasida malaka oshirdi. Shuningdek, yana 60 nafar texnik xodimni xorijda o'qitish bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqilgan.

Bu jarayonlar orqali faqat ishlab chiqarish texnologiyasi emas, balki ilg'or boshqaruv madaniyati va zamonaviy muhandislik yondashuvlari ham milliy sanoatga tatbiq etilmoqda.

Bugungi globallashuv va texnologik raqobat sharoitida energetik mustaqillik hamda texnologik suverenitet har bir davlat uchun strategik ustuvor yo'nalishga aylanayapti. O'zbekiston ham ana shu maqsad sari izchil harakat qilyapti, xususan, gidroenergetika sohasida kompleks islohotlar va zamonaviy yechimlar joriy etilmoqda. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan, ayniqsa, gidroenergiya salohiyatidan samarali foydalangan holda milliy energetika infratuzilmasi bosqichma-bosqich modernizatsiya qilinmoqda.

GESlar uchun zarur bo'lgan murakkab texnologik jihozlar — gidroagregatlar, ehtiyoj qismlar va maxsus asbob-uskunalarni mamlakatimizda ishlab chiqarish bo'yicha yo'lga qo'yilgan mahalliyashtirish va sanoat kooperatsiyasi jarayonlari o'z samarasini bermogda. Natijada mamlakatimizda ishlab chiqarish ortidan importga qaramlik sezilarli darajada kamaymoqda, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning texnologik salohiyati oshib bormoqda, gidroenergetik jihozlar narxi xorijiy analoglardan 12-27 foizgacha arzonlashmoqda, yuzlab yangi ish o'rinlari yaratilib, malakali milliy kadrlar tayyorlanmoqda.

Bu yutuqlar, avvalo, mamlakatimiz energetika tizimini barqarorlashtirish, sanoatni mahalliyashtirish va xalqaro bozorda raqobatbardosh o'rin egallash yo'lidagi muhim qadamlardir.

Shu bilan birga, GESlar qurilishi nafaqat iqtisodiy, balki ekologik va ijtimoiy jihatdan ham katta ahamiyat kasb etadi. Ular tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, issiqxona gazlari chiqindisini kamaytirish, qishloq xo'jaligi va infratuzilmani rivojlantirishga zamin yaratadi. Bu esa barqaror rivojlanish maqsadlariga xizmat qiladi.

Bir so'z bilan aytganda, mahalliyashtirish va sanoat kooperatsiyasi orqali gidroenergetika tarmog'ida erishilayotgan natijalar faqat texnik yoki iqtisodiy yutuq emas, balki yurtimizning ilmiy, sanoat va eksport salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan muhim tarixiy qadamdir.

Sardor TOLLIBOYEV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Bugunning gapi

To'liqin aka ishga kelgach, bir piyola choy ichib ulgurmay darvoza taqilladi. Chiqib qarasa, mahalla raisi yo'qlab kelibdi.

— Qani, rais buva, uyga kiramiz. — Yo'q, shoshib turibman. Bir xushxabarni senga yetkazayin deb keldim. Bilasan, necha yillardan buyon mahallamiz ichki yo'llarini asfalt qilish uchun ko'p joylarga murojaat qildik. Tumanimizdagi mahallalardan keyin bizga ham navbat kelib, qishlog'imiz ko'chalari ta'mirlanadigan bo'ldi. Bir-ikki kunda ishlar boshlanadi. Mahalla faollari bilan o'zlaring bosh-qosh bo'lib, quruvchilardan ham hol-ahvol so'rab turinglar.

Navbahor tumani Hashman mahallasida yashovchi To'liqin Qilichov hududdagi maktabda o'ttiz yildan ortiq o'qituvchilik qilgan. Mahallaning faoli bo'lgani uchun obro'-hurmati ham shunga yarasha. Barcha masalada mahalla mutasaddilariga ko'makdosh. Mahalla raisi xushxabarni bejiz birinchilardan bo'lib unga yetkazmadi, sababi mahallaning ichki yo'llari ta'mirlanishini so'rab, turli idoralar eshigini ko'p marotaba qoqib borgan ham shu o'qituvchi edi.

Bu xabardan keyin To'liqin aka mahalladagi ichki yo'llar ravon bo'lishini o'ylab, ich-ichidan mamnun bo'ldi. Axir shu yo'llarda necha yillar ishga qamadi. Yog'ingarchilik kuchli bo'lib, tuproq ko'chalar loy va ko'lmakka aylanardi. Shunday chog'larda u boshlang'ich sinf o'quvchilarini ko'tarib, birma-bir o'tkazib qo'yardi. Yo'lga shag'al to'kilgach, chuqurlar to'lib, ahvol biri o'z o'nglangandi. Ammo yozda chang, qor-yomg'irda loy bo'lib, noqulaylik tug'dirardi. Nihoyat, bu ko'chalar asfalt bo'ldi. Shularni xayolidan o'tkazgan To'liqin aka ichayotgan choyini ham unutib, tezda ko'chaga otladi. Mahalla faollariga xushxabarni yetkazib, ayrim masalalarni maslahatlashib olishni ko'ngliga tugdi.

Oradan ikki-uch oy vaqt o'tgach, Hashman mahallasining ichki yo'llariga asfalt yotqizish ishi deyarli yakunlandi. Mamlakatimiz



RAVON YO'LLAR:

AHOLIGA QUVONCH, IQTISODGA SARMOYA

mustaqilligining 34 yilligi arafasida mahalla aholisiga ravon yo'llar bayram tufasi bo'ladi.

Bugun Navbahor tumanida asosiy va ichki yo'llarni ta'mirlash bo'yicha keng ko'lami ishlar amalga oshirilganini ta'kidlash joiz. Ayni vaqtda bu jarayon izchil davom etmoqda. Jumladan, tumanida 2025-yilning o'tgan davrida 8 milliard so'm mablag' hisobiga 6,5 kilometr avtomobil yo'llarida rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlari amalga oshirildi. Navbahor tumani "Yo'llardan foydalanish" DM tomonidan umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini ta'mirlash dasturi bo'yicha 3 milliard 700 million so'm mablag' sarflanib, 1,4 kilometrga qoplamta yotqizish, 2 kilometr piyodalar yo'lagi qurilish, 191 dona to'siq va 160 dona beton lotoklar o'rnatish ishlari bajarilib, to'liq foydalanishga topshirildi.

— Prezidentimizning 2024-yil 12-dekabr-dagi "Navoiy viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilingan edi. Shu

asosda "Zarafshon trakti" avtomobil yo'lining Yaltirobod va Qalqonota aholi punktlari hududidan o'tadigan qismini ta'mirlash hamda piyodalar yo'lagi qurish ishlari olib borildi, — deydi "Navbahor tuman yo'llardan foydalanish" DM mutaxassisi Aloudin Astanqulov. — Tuman hududidan o'tgan 85-D 067 avtomobil yo'lining 22 kilometrini ta'mirlash va piyodalar yo'lagi qurish rejalashtirilgan. Ayni vaqtda 2 kilometr 700 metr masofada ishlar bajarildi. Shuningdek, mahallalarda ham ichki yo'llarni ta'mirlash ishlari jadallik bilan davom etmoqda. Konimex tumani viloyatning Tomdi, Uchquduq tumanlari va Zarafshon shaharlarini bog'laydigan markaz sanaladi. Ayni vaqtda A-379 "Navoiy — Uchquduq" avtomobil yo'lining tuman hududidan o'tgan qismida ham keng ko'lami qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirilmogda.

— Ushbu yo'lining 26-28 kilometrlari oraliq'ida ta'mirlash ishlari yakuniga yetkazildi, — deydi "Konimex tuman yo'llardan

foydalanish" DM mas'ul xodimi Akbar Shermatov. — Shuningdek, A-379 "Navoiy — Uchquduq" avtomobil yo'lining Zafarobod shaharchasi hududidagi 56-57 kilometrlik piyodalar yo'lagi qurildi va 83-90 kilometrilarida esa ishlar davom etmoqda. Qurilish-ta'mirlash ishlari yo'lining yana bir necha nuqtalarida amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Jarayonda yo'llarning sifati ta'mirlanishiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Albatta, bugun har qadamda yurtimizdagi yangilanish, obodlik va taraqqiyotga guvoh bo'lyapmiz. Xalqimizning mazmunli hayot kechirishi yo'lida qilinayotgan barcha sa'y-harakatlar faqat bitta maqsadga — odamlarning roziligiga erishishga qaratilgan. Barpo etilayotgan yangi markazlar, chiroy o'chayotgan mahallalar, qulaylik va sharoitlar odamlarning bugungi kunidan ko'ngli to'q, farovon va osoyishta umr kechirishiga xizmat qilayotir. Birgina yo'llarning ravonligi aholi turmush farovonligini ta'minlash va hudud

infratuzilmasi rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bejiz "Yo'li sozning mashaqqati oz", deyilmaydi. Xatirchi tumanida ham bu borada yirik hajmda ishlar olib borilyapti.

Xatirchi tumaniga kirishdanoq uning qiyofasi butunlay o'zgarayotganini his qilasan kishi. Yo'l ta'mirlanmogda, Damariq mahallasida ko'p qavatli turar joylar qad rostladi, sohil bo'yida turli ko'ngilochar, savdo va xizmat ko'rsatish obyektlari barpo etildi. Tumanga Samarqand viloyatining Narpay va Kattaqo'rg'on tumanlaridan kirib kelish chegarasida yangi ko'priklar qurildi. Uning atrofiga qurilish va obodonlashtirish ishlari amalga oshirilyapti. Shuningdek, ayni vaqtda hududga Samarqand viloyatining Paxtachi tumanidan kelishda Zarafshon daryosining ikki qirg'o'g'ini bog'laydigan ko'priklar qurilmogda.

— Ushbu ko'priklar 1978-yil qurilgan va yillar davomida ta'mirlab holatga kelgan edi, — deydi "O'zyo'lko'priklar klasteri Navoiy filiali"

davlat muassasasi ish yurituvchisi Muhsinjon Aglamov. — Yangi ko'priklar avvalgisidan ko'ra keng bo'ladi va uzunligi 129 metrni tashkil etadi. Shuningdek, ikki tomonlama piyodalar o'tish yo'lagi ham qurilib, chiroqlar bilan yoritiladi. Qurilish loyihasida sifat darajasi to'liq inobatga olingan va zamon talabiga mos ravishda mustahkam qurilayotgan ko'priklar yil yakuniga qadar foydalanishga topshiriladi.

Albatta, yo'l infratuzilmasi har qanday mamlakat iqtisodiyoti va ijtimoiy hayotining asosiy qismlaridan biri hisoblanadi. Bu sohada gi bunyodkorlik nafaqat respublika ichida transport harakatlari yaxshilash, shuningdek, mintaqaviy, xalqaro transport aloqalarini rivojlantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda yo'lsolar tomonidan o'n minglab kilometr yo'llar zamonaviy tarzda qurildi. Shuningdek, yo'l o'tkazgichlar, ko'priklar va piyodalar uchun yer osti hamda yer usti yo'llari bunyod etilayotgani aholining uzog'ini yaqin qilish barobarida, harakat xavfsizligini ta'minlashga xizmat qilayapti.

Navoiy viloyatida 2025-yilning o'tgan davrida barcha dasturlar doirasida 510 kilometr avtomobil yo'llarini rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlari amalga oshirildi. Shundan 408 kilometr yo'l asfalt va 102 kilometri shag'al bilan qoplandi. Shuningdek, viloyatda tabiiy ofat oqibatlarini bartaraf etish dasturi doirasida 6 ta obyektda 23 milliard so'mlik qurilish-ta'mirlash ishlari barijlirishi hisobiga 19 kilometr mahalliy ahamiyatdagi avtomobil yo'llarida ta'mirlash ishlari olib borildi.

Bundan tashqari, viloyatda umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini texnik soz holatda saqlash bo'yicha 319 kilometr yo'l ta'mirlanib, harakat xavfsizligini ta'minlash maqsadida 1065 ta yangi yo'l belgilari o'rnatildi hamda yaroqsizlari almashtirildi. Ayni vaqtda viloyatda belgilangan reja asosida yo'llar va 17 ta ko'priklarni ta'mirlash ishlari jadal davom etmoqda.

Albatta, yo'llarning ta'mirlanishi, yangilarning qurilishi shahar va tumanlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Ravon yo'llar, orzu-mandillar, mamnun chehralar, eretasidan o'z-o'zida baland qalblar shukronasiga uyg'unlashmoqda. Asosiysi, bu yangilanishlarni xalq o'z hayotida his etayotir.

G'olib ABDUSALOMOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Ilg'or xorijiy tajribalarni har sohaga tatbiq etish bugunning birlamchi talabiga aylangan. Bu borada yoshlarning imkoniyati kengayib borayotgani diqqatga sazovor.

Prezidentimizning 2021-yil 1-apreldagi "Ilm-fan sohasidagi davlat siyosati va innovatsion rivojlanirishdagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va Vazirlar Mahkamasining "Ilmiy va innovatsion faoliyat bilan shug'ullanib kelayotgan iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari

to'g'risida"gi qarorlari esa bunda dasturulamal bo'lyapti. Xususan, manfaatli loyihalar, yangicha g'oyalar muallifi bo'lgan yoshlarga kerakli mablag' davlatimiz tomonidan ajratilmoqda. Turli davlatlarda stajirovka o'tab kelgan yoshlarning ayrimlari bilan suhbatdan sezdikki, bu boradagi investitsiyalar o'rinni sarflanyapti.

almashtirildi va lazer amaliyoti bajarildi, — deydi suhbatdoshimiz.

Yosh oftalmologning aytishicha, ushbu amaliyotdan hamma shifo topavermaydi. Biroq ikkala ko'zi ko'rmaydigan bemorlar uchun bu ikkinchi imkoniyat. Zero, bir ko'zi ochilsa ham bemor hayotda o'zini o'zgartira olishi mumkin. Ayni shu narsa Temurga turk bo'ldi. Unga Hindistondagi ustoz doktor Sarvana har bir bemor alohida dunyo ekan, har biriga tahlil bilan yondashish kerakligini, hatto jarrohlik amaliyotisiz davolash mumkinligini tushuntirib berdi. Temur bu tavsiyalarga amal qilishga intiladi. U har kuni bemorlar ongini ijobiy tomonga o'zgartirishga harakat qilar ekan, loyihasini yanada rivojlantirib boradi. Gloukoma bo'yicha ilmiy izlanishdan to'xtamaydi. Toshkent davlat tibbiyot universitetining oftalmologiya kafedrasida magistraturani tamomlagan bo'lsa, Irkutsk, Moskva shaharlarida malaka oshirdi. 2-3 haftadan keyin Rossiyada vitreoretinal jarrohlik amaliyotiga bag'ishlab o'tkaziladigan konferensiyada ishtirok etadi.

U har kuni bemorlar ongini ijobiy tomonga o'zgartirishga harakat qilar ekan, loyihasini yanada rivojlantirib boradi. Gloukoma bo'yicha ilmiy izlanishdan to'xtamaydi. Toshkent davlat tibbiyot universitetining oftalmologiya kafedrasida magistraturani tamomlagan bo'lsa, Irkutsk, Moskva shaharlarida malaka oshirdi. 2-3 haftadan keyin Rossiyada vitreoretinal jarrohlik amaliyotiga bag'ishlab o'tkaziladigan konferensiyada ishtirok etadi.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi grantini qo'lga kiritgan Temur Saidov aslida bunday amaliyot o'tashni 5-6 yil oldin rejalashtirgandi. Chunki u o'sha paytdagi statistik ma'lumotlar, o'zi ishlaydigan shifoxonaga murojaatlar, tuman shifoxonalarni o'rganiganida, odamlar orasida asosan qandli diabet, ko'zning ichki bosimi ortib borayotganiga guvoh bo'lgan.

— Eng achinarlisi, qancha profilaktika ishlarini olib bormaylik, bemorlarimiz o'z vaqtida murojaat qilmaydi. Ularning ongini o'zgartirish

juda qiyin kechaypti. Ba'zilar o'ta kech keladi. Natijada bu juda muammoli kasallik — diabetik retinopatiya, ya'ni ko'rlikka olib keladi. Bundan tashqari, juda ko'p kasalliklar, jarohatlar borligi uchun bemorlarning asosiy qismi ko'rolmaydigan bo'lib qoladi. Shu bois, mazkur sohani mukammal o'rganishga harakat qilyapman. Bizda gavhar almashtirish, lazer jarrohlik amaliyotini boshqa-boshqa mutaxassislar bajaradi. Bu operatsiyani bajarish uchun esa har ikkalasini ham mukammal bilish kerak. Birinchi operatsiyamizda ham gavhar, ham shishasimon tana (vitrektomiya)

ICHIMLIK SUV TANQISLIGI VA ENERGIYA SARFIGA ARZON YECHIM

Bugungi kunda ichimlik suv tanqisligi dunyo miqyosida jiddiy muammoga, to'g'rirog'i, xavfga aylandi. Dunyo olimlari buning ustida bosh qotiryapti, turli yechimlar taklif qilyapti. Jumladan, ushbu masalani hal etishda muqobil energiya manbalaridan samarali foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha 2 milliarddan ortiq inson toza ichimlik suvdan foydalanish imkoniyatiga ega emas. Bu esa aholi soni keskin o'sishi, urbanizatsiya, sanoat rivojlanishi, shuningdek, iqlim o'zgarishi va global isish tufayli qurg'oqchilik, suv bug'lanishi kabi omillar natijasida chuchuk suv manbalari qisqarishi bilan izohlanadi. Aynan shu muammolar Farg'ona politexnika instituti dotsenti Behzod Abduraimovning ilmiy izlanishlariga asosiy turki bo'ldi. Behzod bu borada Italiya, Turkiya va Xitoy kabi davlatlarda ilmiy stajirovkalarni muvaffaqiyatli o'tadi. Hozir esa ichimlik suv tanqisligini bartaraf etish uchun zamonaviy usullar bilan yechim topishga



ilmiy hissa qo'shib kelmogda. Gap shundaki, u qo'l urgan mavzu, ya'ni quyosh energiyasi asosida ishllovchi havo isitkich qurilmalari yordamida suvni chuchuklashtirish va issiq suv olishga mo'ljallangan poligeneratsion texnologiyalarni ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Bunday texnologiya-



Hademay uzum rosmana pishib yetiladi. Boshqa mevalar kabi uzumda ham inson organizmi uchun kerakli ko'plab vitaminlar, ayniqsa, glyukoza ko'p. Biroq kimlargadir bu mevani yeyish mumkin emas. Oshqozonida muammoli bor, qandli diabetga yo'liqqan va glutenni qabul qila olmaydigan insonlar uchun uzum o'rmini bosadigan mahsulot ustida ishlayotgan yana bir yosh loyihachimiz

UZUMNING O'RNINI BOSUVCHI MAHSULOT

Abduazim Tojiboyev. U ikkilamchi uzumni qayta ishlash asosida ekstrakt olib, undan glutensiz snek (yengil hazm bo'luvchi mahsulot) olish ustida bosh qotiryapti. Bu turdagi mahsulotda uzum mazasi va hidi mujassam bo'lsa-da, uni iste'mol qilgan bemorda glyukoza indeksi keskin oshmaydi.

Loyiha davlatimiz rahbarining O'zbekiston hududida uzumchilik va vino sanoatini rivojlantirishga qaratilgan qaror va farmonlari ijrosiga monandligi bilan ahamiyatli. Uning yana bir muhim jihati shundaki, uzumdan chiqadigan ikkilamchi xomashyoning qadriini oshirib, chiqindisiz yangi turdagi mahsulot ishlab chiqarishga xizmat qiladi. Ayni paytda esa uzumning ikkilamchi xomashyosi chorva mollari uchun o'g'it va vitamin sifatida

larni, ayniqsa, ichimlik suv tanqis hududlarda samarali qo'llash mumkin. Shuningdek, ulardan foydalanish ekologik toza, energiyatejamkor va iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq. Shu bois, quyosh energiyasidan foydalanish asosida suv chuchuklashtirish texnologiyasini rivojlantirish va uni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha aniq ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish ayni paytda nihoyatda dolzarb.

Tadqiqotchining aytishicha, bugungi kunda quyosh energiyasi asosida suv chuchuklashtirishning qator turlari mavjud bo'lsa-da, ba'zi texnologiyalar eskirgan, ba'zilar esa iqtisodiy jihatdan qimmat va ishlash samaradorligi pastligi ilmiy tahlillar orqali aniqlangan. U ishlab chiqayotgan poligeneratsiya tizimining afzalligi shundaki, samaradorligi yuqori, issiqlik energiyasi to'liq quyosh havo isitkichlari asosida olinadi, iqtisodiy jihatdan arzon va uzoq yillar davomida foydalanish imkonini beradi. Bundan tashqari, ushbu tizim bir vaqtning o'zida kommunal xo'jaliklar uchun ham issiq suv olish imkoniyatini yaratadi.

Behzod ayni paytda Farg'ona davlat texnika universitetida doktorantura bosqichida o'z ilmiy izlanishlarini davom ettirmogda.

USHBU MAQOLANI QORAQLPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



ishlatiladi. Ba'zi hollarda tashlab yuboriladi. Bu esa uzum tarkibidagi yuqori qiymatli moddalar yo'qolishiga olib keladi. Shu munosabat bilan ikkilamchi uzum xomashyosidan kompleks va oqilona foydalanish asosida yuqori sifatli, past kaloriyal, boyitilgan mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish dolzarb milliy iqtisodiy vazifadir.

Tahlillar ikkilamchi uzum xomashyosining yuqori sifatli mahsulot olish uchun ishtiqlik ekanini ko'rsatadi. Xomashyo ekstrakti antioksidant xususiyatlarga ega bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda muvaffaqiyatli qo'llanishi mumkin.

Hozirgi kunda mazkur loyiha ustida ishlanyapti. Sneking inson salomatligiga ta'siri darajalari laboratoriya muhitida o'rganilmoqda.

Munajat MO'MINOVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

TA'LIM VA TARBIYADA NOYOB TAJRIBA

BILIMLARNI BOYITISH, IJTIMOY FAOLLIKNI OSHIRISH VA KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH FURSATI



Alisher SAMADOV, TDTU Olmaliq filiali direktori, texnika fanlari doktori, professor

Ayni yoz faslida mazkur loyihaga start berilgani bejiz emas. Chunki yozda maktab o'quvchilarining hammasi ham oromgoxlarga qamrab olinmaydi. Jami o'quvchilarning taxminan 20-30 foizi dam olish oromgoxlariga boradi, yana 15-20 foiz bolalar qo'shimcha to'garak va mashg'ulotlarga jalb qilinadi. Ammo ko'pchilik yoshlar, ayniqsa, maktab o'quvchilari yozning to'liq uch oyini uyda o'tkazadi. Natijada ular smartfon va internetga qaramlik kuchayadi. Ota-onalarning ishd ekanini inobatga olsak, ko'p yoshlar kunduzi qarovsiz qoladi. Bu holat nafaqat maktab o'quvchilari, balki oliy ta'lim muassasalari talabalari orasida ham kuzatiladi. Ayrimlari ishlasa, aksariyati turli ijtimoiy tarmoqlarga bog'langan holda telefonga band bo'lib qoladi.

Aynan mana shunday sharoitda yoshlarga ma'naviy ko'mak berish, ularni ijodiy, ta'limiy va kasbiy faoliyatga jalb qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hamkorlik. Bugungi kunda barcha ta'lim muassasalarida yoshlar uchun fan, sport va kasb to'garaklari faoliyati yo'lga qo'yilgan. Jumladan, Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filialida ham "Dolzarb 90 kun" loyihasi doirasida bir qator ma'naviy-ma'rifiy va amaliy tadbirlar tashkil etilmoqda. Jumladan, maktab bitiruvchilari uchun davra suhbatlari, payvandlash to'garaklari, ko'chma laboratoriyalar hamda turli fanlar bo'yicha seminar-trening-

Dolzarb 90 kun

Bugungi kunda yurtimizda yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bilim, iqtidor va salohiyatini yuzaga chiqarish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Prezidentimiz tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan "Dolzarb 90 kun" loyihasi ham aynan shu maqsadga xizmat qilayotgani bilan ahamiyatli. Ushbu loyiha doirasida yoshlarni ta'lim, fan, madaniyat va sportga faol jalb qilish qatorida ularning ijtimoiy faolligini oshirish, hayotda o'z o'rinlarini topishiga katta ko'mak berilmoqda.



lar o'tkazilyapti. Bitiruvchi yoshlar universitetdagi zamonaviy laboratoriya va o'quv xonalari faoliyati bilan yaqindan tanishish, bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtirish imkoniga ega bo'lmoqda.

Bunday hamkorlikdagi faoliyat yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularni kelajakda

raqobatbardosh kadr sifatida tayyorlashda muhim qadam bo'lib xizmat qilmoqda.

Shuningdek, dastur doirasida yoshlarning ma'naviy-xalqiy qiyofasini shakllantirishga qaratilgan psixologik treninglar ham tashkil etildi. Mahallalar bilan hamkorlikda chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilib, uchrashuvlar uyushtirilmoqda. Bu treninglarda stressni boshqarish, ruhiy barqarorlikni saqlash va hayotdagi muammolarni yengib o'tish borasida yoshlarga aniq yo'l-yo'riqlar berilmoqda. Ya'ni Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filialida ayni paytda yoshlar uchun ingliz tili va IT to'garaklari ishlab turibdi. Madaniy-ma'rifiy tadbirlar, psixologik treninglar, mahallalarda ochiq muloqotlar, yozgi sport tadbirlari o'tkazilmoqda.

Salomatlik. Yoz oylarida jismoniy faollikni oshirish, sportga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish uchun ta'lim muassasalari sport maydonlari va zallari yoshlar ixtiyorida. OTM va maktablar hamkorligida yoshlarda sog'lom raqobat muhitini yaratish maqsadida sportning turli yo'nalishlarida musobaqalar tashkil etilmoqda.

Faollik. "Dolzarb 90 kun" loyihasi yoshlar uchun faqat vaqt o'tkazish emas, balki kelajak hayoti uchun zarur ko'nikmalarni shakllantirish, bilimlarni boyitish, ijtimoiy faollikni oshirish yo'lidagi ulkan imkoniyatdir. Har bir ustoz, ta'lim muassasasi va mahalla raisi bu jarayonda faol ishtirok etishi, yoshlar salohiyatini ro'yogga chiqarishda o'z hissasini qo'shishi bugungi kunning dolzarb vazifasidir.



SALOMATLIGIMIZNI ASRASHGA O'ZIMIZ MAS'ULMIZ

Buyrak kasalliklariga e'tiborsizlik buyrak yetishmovchiligini keltirib chiqaradi. Natijada inson buyragi sekin-asta ishdan chiqib, qurish darajasiga yetib keladi. Bunday holatda esa bemor muntazam gemodializ seanslari bilan hayot kechirishi kerak bo'ladi.

Yurtimizda keyingi yillarda tibbiyot sohasidagi islohotlar sabab ushbu xastalik bilan og'rigan bemorlarga sifatli va malakali tibbiy xizmat ko'rsatish yaxshilana bormogda. Hatto hududlarda ham nefrologiya va gemodializ bo'limlari tashkil etilib, ular zamonaviy asbob-uskunalar bilan ta'minlanadi.

Bu borada Farg'ona viloyatida e'tirofqa molik ishlar qilindi. Masalan, Farg'ona, Marg'ilon, Qo'qon shaharlari, Qirg'uli hududi, Bag'dod, Yozovon tumanlaridagi tibbiyot muassasalari gemodializ apparatlari bilan ta'minlanib, bemorlarga muntazam muolajalar ko'rsatib kelinyapti.

Marg'ilon shahri tibbiyot birlashmasida bir necha yillar avval nefrologiya va gemodializ bo'limi tashkil etilgan bo'lib, bemorlar to'rt smenada gemodializ seanslari olayotgandi. To'g'ri, avvaliga bu yerda sharoit qoniqarli darajada bo'lmagan. Gemodializ apparatlari eskirgan, ta'mirga muhtojligi sabab ushbu muolajalarni olishda muammolar bor edi. O'tgan yili bo'limning zamonaviy gemodializ apparatlari bilan ta'minlanishi muolaja oluvchi bemorlarning mushkulini oson qildi. Shinam, yorug' xonalar barcha zarur tibbiyot anjomlari bilan jihozlangan, xizmatlar o'z vaqtida sifatli ko'rsatib kelinyapti.


— Shifoxonamizda bemorlar gemodializ muolajalarini o'z vaqtida va sifatli olish uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berishga harakat qilyapmiz, — deydi mazkur tibbiyot birlashmasiga qarashli nefrologiya va gemodializ

bo'limi shifokori, nefrolog Hakimjon Abbasov. — Avvalo, buyrak xastatligiga chalingan bemorlar nazoratga olinib, ularda turli tahlillar o'tkaziladi, xulosasiga asosan muolajalar belgilanadi. Biz bemorlar gemodializ olish darajasiga yetib kelmasligi uchun barcha davro choralarini ko'ramiz. Biroq ayrimlar o'z salomatligiga e'tiborsizligi sabab buyragi ishdan chiqish darajasiga yetgandagina shifokorga murojaat qiladi. Natijada ularni gemodializga ulashga majbur bo'lamiz. Shu sabab biz hamyurtlarimizni doimo sog'lig'iga e'tiborli bo'lishga chaqiramiz.

Buyraklar ishdan chiqqanda gemodializ ularning vazifasini vaqtincha bajaradigan tibbiy usuldur. Bemor haftasiga ikki-uch marta shifoxonada gemodializ seanslari oladi. Seans to'rt soat davom etadi.

Har qanday kasallikka e'tiborsiz qarash, vaqtda oldini olmaslik kelgusida xavfli holatlarni keltirib chiqaradi. Zero, "Kasalini yashirang, istisami oskor qiladi" degan gap bejiz aytilmagan. O'z vaqtda aniqlash, to'g'ri davolash va turmush tarzini nazorat qilish orqali kasallikning asoratlarini yengillashtirish mumkin. Eng muhimi, har bir inson o'z salomatligi uchun mas'uliyatni his qilib, profilaktikaga e'tibor qaratib yashasa, hayoti charog'on va farovon bo'ladi.

Fotima MANSUROVA, jurnalist



O'zA yakuni — 22:35